O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALARVAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTUTI

“QURILISH” FAKULTETI

“QURILISH MUHANDISLIGI” KAFEDRASI

**“60730100 – ARXITEKTURA (TURLARI BO‘YICHA)” YO‘NALISHI**

**“LANDSHAFT LOYIHALASH” FANIDAN**

# O‘ Q U V –U S L U B I Y M A J M U A

**(7-8-semestrlar)**

**Namangan - 2024**

**‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALARVAZIRLIGI**
**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**«Tasdiqlayman»**
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_______________ Q. Inoyatov
«____» ____________2024 y.

**QURILISH” FAKULTETI**

**“QURILISH MUHANDISLIGI” KAFEDRASI**

**“60730100 – ARXITEKTURA (TURLARI BO‘YICHA)” YO‘NALISHI**

# “LANDSHAFT LOYIHALASH” FANIDAN

# O‘ Q U V –U S L U B I Y M A J M U A

**(7-8-semestrlar)**

**Namangan-2024**

Mazkur O‘quv-uslubiy majmua “60730100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishining o‘quv rejasi va Toshkent arxitektura-qurilish institutining arxitektura nomzodi, dots. L.A.Adilova tomonidan ishlab chiqilgan “Landshaft loyihalash” fanining o‘quv-uslubiy majmuasi asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchilar: B.Hatamkulov** - NamMQI, «Qurilish muhandisligi» kafedrasi katta o’qituvchisi, t.f.f.d. PhD.

**Taqrizchi: A.Xamraqulov** -NamMQI «Qurilish muhandisligi» kafedrasining katta o’qituvchisi

NamMQI “Qurilish muhandisligi” kafedrasining 2024 yil “21”08 dagi “1” - sonli majlisida muhokama qilingan.

O‘quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti Uslubiy kengashining 2024 yil “27”08 dagi “1” - sonli qaroriga muvofiq o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

# MUNDARIJA

I. KIRISH…………………………...…………………………………………….

II.“Landshaft loyihalash” fanining o‘quv dasturu…………………………...…

III. “Landshaft loyihalash” fanining ishchi o‘quv dasturu……………………...…

IV. SILLABUS…………………………………………………………...…...…5

V.FANNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI…………………………………………….......................…9

VI. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.........................................19

6.1.Jamoat binolari xududini landshaft loyixalash ……………........... ..19

6.2.Sihatgoh landshaftni loyixalash ……… .......................………30

VII. KEYSLAR BANKI…………………………………………...…….82

VIII.MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI……………………...….......…84

IX. GLOSSARIY…………………………………….......……...…...…85

X.ADABIYOTLAR RO‘YXATI……………………....……...................…93

Mazkur dastur “60730100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha)” bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallab "Landshaft loyihalash" fani bo‘yicha bajariladigan amaliy mag‘ulotlar uchun tuzilgan. Dastur landshaft ob’ektlarini loyixalash va qurish soxasida nazariy va amaliy tajriba to‘plashga mo‘ljallangan.

Landshaft loyihalashning va uning eng muhim shoxobchasi bog‘-park san’atining yorqin, o‘ziga xosligi maxsus, tabiiy qurilish materialarining: o‘simliklar, suv, yer, joy topografiyasini xam xisobga olgan xolda foydalatilganligi va hozir ham foydalanilishi xisoblanadi. Aynan ana shu materiallar ochik fazolar muxitini shakllantirishda landshaft loyihalash- ning asosiy ish qurollari hisoblanadi. Odatdagi qurilish materiallari ham axamiyatga ega bo‘lsada, ular shakllantirilayotgan muhitga faqat qo‘shimcha bo‘ladi.

Amaliy mag‘ulotlarda talabalar dastavval Jamoat binolarili uy yer hududlarini landshaft loyixalashning asosiy talablari,loyixalash amaliyoti, qurilish tendentsiyasi va landshaft tashkil etishning muhim jixatlarini o‘rganadilar.

SHuningdek,ular hudud landshaftini naturada o‘rganish jarayonida xudud relьefi, mavjud o‘simliklar (daraxtlar, butalar, gullar) arxitektura qurilmalari, kichik arxitektura shakllari kabi hudud elementlari xaqida kerakli ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.Ular ishlash jarayonida hududning arxitekturaviy –rejalashtirishni tashkil etish bo‘yicha eskiz qilish asosida manzarali zonalar kompozitsiya bo‘laklarini dizaynini ishlab chiqadilar.

Tematik park landshaft loyixalash ishlarini bajarish jarayonida talabalar tomonidan quyidagi ketma-ketlikdagi ishlar amalga oshiriladi.

Xususan,talabalarga Tematik parkni landshaft loyixalashda qurilish maydonini topotasvir asosida joylashtirish vazifasi yuklatiladi.Keyingi loyixalash bosqichida xududni funktsional zonalarga bo‘lish hamda shaxar rejasida joylashtirish, atrof qurilishlar, transport bilan ta’minlanganligi, piyodalar oqimi kabi shaxarsozlik vaziyatini o‘rganish asosida doyixa oldi tadqiqot ishlarini olib boradilar.Keyingi bosqichda bog‘ xududi landshaftini naturada o‘rganadilar. Bunda ular xudud relьefi, mavjud suv xavzalari, mavjud o‘simliklar (daraxtlar, butalar, gullar) arxitektura qurilmalari, kichik arxitektura shakllari kabi landshaft elementlariga alohida e’tibor qaratadilar.

SHuningdek,amaliy mashg‘ulotlarni bajarish jarayonida Tematik bog‘ uchastka xududini umumiy funktsional zonalarga bo‘lgan extiyojni xisobga olgan xolda hududni fazoviy manzarali–estetik zona, landshaft kompozitsiyalari, kichik formalar, xaykallar zonalari, bolalar o‘yin zonalari yozgi ovqatlanish zonalariga mazmuniy bo‘lish kabi ishlarni bajaradilar.

## O‘quv fanining maqsadi va vazifalari.

**Fanning maqsadi** - talabalarda landshaft loyihalash asosidagi dunyoqarashni shakllantirish va landshaftli loyixalash malakasini rivojlantirish uchun nazariy bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini tarbiyalashdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari:

- landshaft loyihalash va bog‘ - park san’atining butun olam tajribasi taraqqiyot

bosqichlarini o‘rganish;

- landshaft loyihalash ob’ektlarini landshaft tashkil etish asoslarini shaharsozlik rejalashtirish va loyixalashning turli bosqichlari bo‘yicha o‘rganish;

- landshaft loyihalash ob’ektlarini funktsional - rejaviy, landshaft - estetik va ekologik yondoshgan xolda loyixalash ko‘nikmalarini tarbiyalash.

-

**Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar**

**Bakalavr:**

- landshaft loyihalashning asosiy maqsad va vazifalarini; tabiiy va antropogen landshaftlar o‘rtasidagi farqni; bog‘-park san’ati va landshaft loyihalashning asosiy taraqqiyot bosqichlarini; landshaft loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlarini; landshaft loyihasini funktsional zonalarga bo‘lishni; landshaft loyihalashning nazariy asoslarini; landshaft loyihalashning asosiy elementlarini va o‘simlikning asosiy turlarini bilishi**;**

- loyihalash ob’ekti ta’siri ostidagi xududlarni landshaft loyixalash jarayonida, shuningdek shaxarning ochiq fazolari va bog‘ -parklar, xiyobonlar, saylgoxlar, qirg‘oq bo‘ylari, piyodalar yo‘laklari, shaxar markazlari xududlarini,Jamoat binolari uy yer maydrnlarini arxitekturaviy - landshaft loyixalash jarayonida to‘plangan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq eta olish malakasiga ega bo‘lish;

- landshaft loyihasi va dizayn tamoyillarini mahalliy iqlim sharoitlarida, loyixa qilinayotgan loyihalash ob’ekti va shaxarning ochiq fazoviy xududlarida amaliy jixatdan ko‘llay bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

**Fanni o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

“Landshaft loyihalash” fani asosiy mutaxassislik fanlardan biri bo‘lib VIII semestrda o‘rganiladi.

Talabalarning ushbu dasturni amalga oshirish uchun o‘quv rejada rejalashtirilgan “Landshaft loyihalash” fanini o‘rganish quyidagi o‘quv fanlarni o‘rganish bilan bog‘liq:

- Axitektura va shaharsozlik tarixi.
- Muhandislik obodonlashtirish va transport.
- San’at va loyihalash tarixi. Zamonaviy loyihalash.
- Loyihalash-landshaft kompozitsiyasi, grafikasi va loyixalash.
- Landshaft loyixalash.

fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi va u “Landshaft loyihalash” fanini o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi hamda kelgusida “Landshaft loyihalash” fanini o‘rganishga ushbu yo‘nalish bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishga zamin yaratadi.

## Fanning ishlab chiqarishdagn o‘rni

Landshaft loyihalash jamiyatning xayotiy faoliyatini o‘rab turgan muxitning ekologik, sanitar - gigienik va estetik sifatlarini yaxshilashga bevosita ta’sir etuvchi fandir.

Landshaft loyihalashning ob’ektlari yer usti - turli rejaviy satxlardagi, turli funktsional maqsadlarga xizmat kiluvchi xududlardir. Bu shaxarlar, kishloqlar, sanoat ishlab chiqarish, rekreatsiya, tabiat muxofazasidagi va boshqa xalk xo‘jaligiga tegishli bo‘lgan yer xududlari. Yerni landshaft obodonlashtirish asosidagina uning sotsial, ekologik, estetik komfort va rentabelligiga erishish mumkin. Landshaft loyihalash shaxar va rekreatsiya xo‘jaligi yerlaridan foydalanish va parvarish qilish rentabelligini oshiradi, chunki bu xududlarning jozibadorligini kuchaytirib, shaxarda yashovchi va rekreatsiyadan foydalanuvchi axolini o‘ziga jalb kilishga yordam beradi. Rekreatsiya -xordik, savdo-sotiq va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan xududlarni landshaft obodonlashtirish shuningdek madaniy - maishiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash natijasida savdo - sotiq va boshqa xizmatlardan ko‘riladigan foyda yanada ko‘payib, shaxar xo‘jaligi va umuman, xalk xo‘jaligi uchun bu xududlarning rentbelligi yanada ko‘tariladi.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Landshaft loyihalash” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion- pedagogik texnologiyalarini tadbiq etish muxim axamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar xamda ishchi holatdagi texnologik qurilmalardan va ishlab chiqarish texnologiyasi namunalari va maketlaridan foydalaniladi.

Dastur mavzularini o‘zlashtirish darajasini oshirishda ma’ruzalarni interfaol usullarda, munozaralar asosida, talabalarning erkin fikrlashini ta’minlash asosida, kelgusi ma’ruza mavzulari asosida internet ma’lumotlari aniqlash vazifalari va ularni talabalar orasida taxlil etib borish orqali ma’ruza mashg‘ulotlarini keng tarzda amalga oshiriladi.

“Landshaft loyihalash” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy kontseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**SHaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarining o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob’ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash -** yangi kompьyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

**“**Landshaft loyihalash**”** fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “3D MAX”, AutoCAD “Excel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompьyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

**Landshaft loyihalashning nazariy asoslari.** SHahar landshafti va landshaft loyihalasi ob’ektlarini shakllantiruvchi omillar tizimi. Landshaft loyihalash ob’ektlarini shakllantirishda tabiiy shart-sharoitlarning ahamiyati. Landshaft loyihalash ob’ektlarini shakllantirishda o‘simliklarning ekologik va sanitar - gigienik vazifalari. Landshaft

loyihalash ob’ektlarini shakllantirishda qurilish texnologiyasi va landshaft loyihalasi ob’ektlarini ekspluatatsiya qilish, estetik va tabiatni muxofaza kilish omillarining o‘rni.

Bog‘ - park kompozitsiyasi tushunchasining moxiyati. Bog‘ - park kompozitsiyasining uslublari. Parkning fazoviy muxitini tashkil etish. Dominanta. Kompozitsion tugunlar. Aktsentlar. Muvozanat, ritm, o‘sib borish, kontrast, kutilmagan xolat, nisbatlar, birlik, masshtab tushunchalari. Park peyzajlarini idrok etish xususiyatlari. Peyzaj kartinasi va uning kompozitsiyasi. Fazoviy va chizikli perspektiva. Rang, yoritilganlik. Peyzajni tashkil etish koidalari.

**Landshaft loyihalashning asosiy elementlari.** O‘simliklar. Landshaft loyihalasi ob’ektlarini shakllantirishda o‘simliklarning o‘rni va axamiyati. O‘simliklarni muntazam tartibda va peyzaj uslubida tashkil etish. Landshaft loyihalashda foydalaniladigan daraxtsimon, butasimon va gulli o‘simliklar. Suv xavzalari. Ularning landshaft loyihasi ob’ektlarini yaratishdagi axamiyati. Suv xavzalari tasnifi. Suv xavzalarining rejalashtirish va fazoni tashkil etishdagi vazifalari.

## Mustaqil nshni tashkil etishning shakli va mazmunn

Talabalarning mustaqil ish olib borishlari uchun quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

• fanni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning boblari bo‘yicha o‘quv materialini o‘rganish;

• amaliy mashg‘ulot qismlari bo‘yicha tarqatiladigan materiallarni o‘zlashtirish;

• ta’lim va nazoratning avtomatlashtirilgan vositalari bilan ishlash;

• “Landshaft loyihalash” fani bilan bog‘liq o‘quv-ilmiy amaliy adabiyotlarni o‘rganish;

• Internet tarmoqlarida joylashtirilgan landshaft loyihalashga oid materiallarni o‘rganish;

Mustaqil o‘rganish uchun tavsiya qilinadigan mavzu va bo‘limlar ro‘yxati:

• Landshaft loyihalashning zamonaviy muammolari va vazifalari;

• Landshaft loyihalashning zamonaviy ob’ektlari sifatida yashil zonalar, o‘rmon - parklar va milliy bog‘lar yaratish;

• Landshaft loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlari - yerni qayta ishlash va noqulay yerlarni o‘zlashtirish;

• Turar joy tumani xududini landshaft - rejaviy tashkil etish. Turar joy tumanlarining umumiy tuzilishi. Tabiiy omillar, bino va inshootlarning turlaridan kelib chiqqan xolda landshaft tashkil etishning xususiyatlari. Turar joy tumanlari ko‘kalamzorlarining tuzilishi va turlari;

• Bog‘lar va parklar, maydonlar, ko‘chalar, xiyobonlar, saylgoxlar, kirg‘oq bo‘ylari, shaxarlardagi piyodalar fazoviy muxitlarining landshaft loyihalasini rivojlantirish yo‘nalishlari;

• Issiq iqlim xududlarini landshaft tashkil etishga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar;

• Landshaft dizayni asoslari. Arxitekturaviy inshootlar va jixozlar.

• Yo‘l qoplamlari. Qoplamalar turlari, bezash usullari. Bezakli kurilmalar, axborotlar, reklamalardan tuzilgan va kompozitsion aktsentlar, suv xavzalari elementlarining dizayni. Satxlar plastikasi. Satxlarni ranglar bilan bezash va xajmiy bezaklarni o‘rnatish;

**«Landshaft loyihalash» fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha loyixalashini asosiy bosqich va elementlari:**

| № | Loyixalash bosqichlarining mazmuni | Soat |
|---|---|---|
| | **1-bosqich.** ***Jamoat binolari hududini loyixalash*** | |
| **1** | Topshiriq berish. Landshaft loyixalashning maqsad va vazifalarini tushintirish. Jamoat binolari hududini loyixalash landshaft loyixalashning asosiy talablari. Loyixalash amaliyoti, qurilish tendentsiyasi va landshaft tashkil etishning sharxi. | **2** |
| **2** | Topotasvir asosida atrof muxitni shaxarsozlikda taxlil qilish vazifasi. Tanlangan xududni landshaft taxlil qilish vazifasi. Loyixalash bosqichi. Jamoat binolari hududini loyixalash xududini funktsional zonalarga bo‘lish | **2** |
| **3** | Loyixa oldi tadqiqot. SHaxarsozlik vaziyatini o‘rganish: shaxar rejasida joylashtirish, atrof qurilishlar, transport bilan ta’minlanganligi, piyodalar oqimi. | **2** |
| **4** | Jamoat binolari hududini loyixalash naturada o‘rganish. landshaft elementlarini o‘rganish: xudud relьefi, mavjud o‘simliklar (daraxtlar, butalar, gullar) arxitektura qurilmalari, kichik arxitektura shakllari | **2** |
| **5** | Loyixani funktsionalь-rejalashtirish kontseptsiyasini loyixa oldi arxitektura rejalashtirish va texnik shartlarni xisobga olgan xolda tayyorlash. | **2** |
| **6** | Klauzurani grafik bajarish va ximoya qilish. | **2** |
| **7** | Jamoat binolari hududini loyixalash xududini funktsional zonalarga bo‘lish, ya’ni xududini umumiy funktsional zonalarga extiyojni xisobga olgan xolda bo‘lish. Xududni asosiy zonalarini: - fazoviy manzarali –estetik zona, - landshaft kompozitsiyalari, kichik formalar, - bolalar o‘yin zonalari yozgi ovqatlanish zonalariga mazmuniy bo‘lish. | 2 |
| **8** | Joyning tabiiy sharoitini va uning asosiy funktsional zonalari xamda yo‘lka va so‘qmoqlar tarmoqlarini xisobga olgan xolda arxitekturaviy – rejalashtirish kompozitsiyasini izlash. | **2** |
| **9** | Ochiq va soyali fazoni tashkillash parametrlarini eskiz qilish. Landshaft dominantlarini aniqlash (relyef, mavjud suv xavzalari, mavjud o‘simliklar) | **2** |
| **10** | Funktsional dominantlarni aniqlash (kirishlar, arxitekturaviy inshootlar, xajmiy va mazmuniy ekspozitsiyalar).Yo‘l tarmoqlarini rejaviy kompozitsiyasini eskiz qilish (ortogonalь, erkin, xalqasimon, nursimon, aralash) | **2** |
| **11** | O‘simliklarni fazoviy-rejaviy tashkil etishni eskiz qilish. Massivlar, guruxlar, alleyalar. Daraxt–butalar va gulli o‘simliklar soliterini fazoviy tashkil etish. | **2** |
| **12** | Manzarali zonalar kompozitsiya bo‘laklarini dizaynini ishlab chiqish. | **2** |
| **13** | Tasdiqlangan bosh reja loyixasini kamchiliklarni xisobga olgan xolda chizish. | **2** |
| **14** | O‘simliklarni fazoviy tashkil etish tarxi va yo‘l tarmoqlari tarxini chizish. | **2** |

| | | |
|---|---|---|
| **15** | Muxandislik tarmoqlari: suv, elektrlashtirish, issiqlik tarmoqlarini rejalashtirish tarxini chizish. | **2** |
| **16** | Xovli joyni boʻylama va koʻndalang qirqimda yer relьefini,oʻsimliklar boʻyini va suv xavzalari chuqurligini koʻrsatgan xolda chizish. | **2** |
| **17** | Loyixani joylashtirish va loyixani ximoya qilish uchun rangli bezash. | **2** |
| **18** | Tushuntirish matni tuzish va loyixani ximoya qilish. | **2** |
| | **Ja'mi:** | **36** |
| | **2-bosqich.** ***Sanatoriya (Sihatgoh) landshaft loyixalash*** | |
| **1** | Topshiriq berish. Sanatoriya (Sihatgoh) landshaft loyixalashning asosiy talablari. Loyixalash amaliyoti, qurilish tendentsiyasi va landshaft tashkil etishning sharxi | **2** |
| **2** | Topotasvir asosida atrof muxitni shaxarsozlikda taxlil qilish vazifasi. Tanlangan xududni landshaft taxlil qilish vazifasi. Loyixalash bosqichi. Uchastka xududini funktsional zonalarga boʻlish | **2** |
| **3** | Loyixa oldi tadqiqot. SHaxarsozlik vaziyatini oʻrganish: shaxar rejasida joylashtirish, atrof qurilishlar, transport bilan ta'minlanganligi, piyodalar oqimi. | **2** |
| **4** | Bogʻ xududi landshaftini naturada oʻrganish. landshaft elementlarini oʻrganish: xudud relьefi, mavjud suv xavzalari, mavjud oʻsimliklar (daraxtlar, butalar, gullar) arxitektura qurilmalari, kichik arxitektura shakllari | **4** |
| **5** | Topshiriq berish. Landshaft loyixalashning maqsad va vazifalarini tushintirish. Sanatoriya (Sihatgoh) landshaft loyixalashning asosiy talablari. Loyixalash amaliyoti, qurilish tendentsiyasi va landshaft tashkil etishning sharxi. | **2** |
| **6** | Shaxarsozlik vaziyatini oʻrganish: shaxar rejasida joylashtirish, atrof qurilishlar,transport bilan ta'minlanganligi, piyodalar oqimi. | **2** |
| **7** | Loyixani funktsionalь rejalashtirish kontseptsiyasini loyixa oldi shaxarsozlik, landshaft, arxitektura rejalashtirish va texnik shartlarni xisobga olgan xolda tayyorlash. | **2** |
| **8** | Klauzurani grafik bajarish va ximoya qilish. | **2** |
| **9** | Sanatoriya (Sihatgoh) xududini funktsional zonalarga boʻlish. Tematik bogʻ uchastka xududini umumiy funktsional zonalarga extiyojni xisobga olgan xolda boʻlish. Xududni asosiy zonalarini: - fazoviy manzarali –estetik zona, - landshaft kompozitsiyalari, kichik formalar, xaykallar zonalari, - bolalar oʻyin zonalari yozgi ovqatlanish zonalariga mazmuniy boʻlish. | **2** |
| **10** | Xududni arxitekturaviy –rejalashtirishni tashkil etishni eskiz qilish (doimiy, landshaftga oid, rango-rang, aralash). Joyning tabiiy sharoitini va parkning asosiy funktsional zonalari xamda yoʻlka va soʻqmoqlar tarmoqlarini xisobga olgan xolda arxitekturaviy– rejalashtirish kompozitsiyasini izlash. Ochiq va soyali fazoni tashkillash parametrlarini eskiz qilish. | **4** |
| **11** | Landshaft dominantlarini aniqlash (relyef, mavjud suv xavzalari, mavjud oʻsimliklar). Funktsional dominantlarni aniqlash (kirishlar, arxitekturaviy inshootlar, xajmiy va mazmuniy ekspozitsiyalar). | **2** |
| **12** | Yoʻl tarmoqlarini rejaviy kompozitsiyasini eskiz qilish (ortogonalь, erkin, xalqasimon, nursimon, aralash) | **2** |
| **13** | Oʻsimliklarni fazoviy-rejaviy tashkil etishni eskiz qilish. Massivlar, guruxlar, alleyalar. Daraxt – butalar va gulli oʻsimliklar soliterini fazoviy tashkil etish. Manzarali zonalar kompozitsiya boʻlaklarini dizaynini ishlab chiqish. | **2** |

| | | |
|---|---|---|
| **14** | Tasdiqlangan bosh reja loyixasini kamchiliklarni xisobga olgan xolda chizish. O‘simliklarni fazoviy tashkil etish tarxi va yo‘l tarmoqlari tarxini chizish | **2** |
| **15** | Sanatoriya (Sihatgoh) joyini bo‘ylama va ko‘ndalang qirqimda yer relьefini, o‘simliklar bo‘yini va suv xavzalari chuqurligini ko‘rsatgan xolda chizish. | **2** |
| **16** | Loyixani joylashtirish va loyixani ximoya qilish uchun rangli bezash. Tushuntirish matni tuzish va loyixani ximoya qilish | **2** |
| | **Ja’mi:** | **36** |

## «Landshaft loyihalash» fanidan VIII - semestr uchun mustaqil ta’lim darslarining taqsimoti

| **T.r.** | **Mustaqil ta’lim darslari** | **Soat** |
|---|---|---|
| **1** | Landshaft loyihalashning zamonaviy muammo va vazifalarini o‘rganish. | **4** |
| **2** | Lanshaft loyihalashni rivojlanishining asosiy bosqich va qonuniyligini o‘rganish. | **4** |
| **3** | Lanshaft loyihasi rivojlanishining yo‘nalish va qonuniyligini o‘rganish. | **4** |
| **4** | SHaxar va xududlarni maysazorlar tizimini rejalashtirish va shakllantirish printsiplarini o‘rganish. | **4** |
| **5** | Markazlar bog‘-park tizimi landshaftini tashkil qilish va shakllantirish uslublarini zamonaviy tendentsiyalarini o‘rganish. | **4** |
| **6** | Lanshaft loyihalasi ob’ektlarining xilma-xil turlarini o‘rganish. | **4** |
| **7** | Parklarning turlari va ularning funktsional rejalashtirish va landshaftni tashkil qilish printsiplarini o‘rganish. | **4** |
| **8** | Xovli joy xududini landshaft tashkil qilish va dizaynining zamonaviy tendentsiyalari. | **4** |
| **9** | Qishloqlararo landshaft-rekreatsion tizimini shakllantirish misollarini o‘rganish. | **4** |
| **10** | Bog‘-park kompozitsiyasini shakllantirishning printsiplari va qonuniyligi. | **4** |
| **11** | Bog‘ va parklarning peyzajini qurish qoidalariga va landshaftini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish. | **4** |
| **12** | Landshaftning tabiiy elementlari va ularda qo‘llangan landshaft dizayni printsiplarini o‘rganish. | **4** |
| **13** | Landshaftning inert elementlari va ularda qo‘llangan landshaft dizayni printsiplarini o‘rganish. | **2** |
| | **Ja’mi:** | **50** |

**Landshaft loyihalash» fanidan**
**BAHOLASH ME’ZONLARI**

| Ball | Baho | Talabalarning bilim darajasini ifodalovchi xolatlar |
|---|---|---|
| 5 | A’lo | - xulosa va qaror qabul kilish;<br>- ijodiy fikrlay olish;<br>- mustaqil mushoxada yurita olish;<br>- olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;<br>- moxiyatini tushunish;<br>- bilish, aytib berish<br>- tasavvurga ega bulish. |
| 4 | Yaxshi | - mustaqil mushoxada yurita olish ;<br>- olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;<br>- moxiyatini tushunish;<br>- bilish, aytib berish;<br>- tasavvurga ega bulish; |
| 3 | Qoniqarli | - moxiyatini tushunish;<br>- bilish, aytib berish;<br>- tasavvurga ega bo‘lish ; |
| 2 | Qoniqarsiz | - aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;<br>- bilmaslik; |

# IV.«LANDSHAFT LOYIHALASH» fanining 2024-2025 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan

# S I L L A B U S I

<table>
<tr><th colspan="6">Fanning qisqacha tavsifi</th></tr>
<tr><td>OTMning nomi va joylashgan manzili:</td><td colspan="3">Namangan muhandislik - qurilish instituti</td><td colspan="2">Islom Karimov ko‘chasi, 12 uy</td></tr>
<tr><td>Kafedra:</td><td colspan="3">Qurilish muhandisligi</td><td colspan="2">“Qurilish” fakulteti</td></tr>
<tr><td>Taxlim sohasi va yo‘nalishi:</td><td>60730100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha)</td><td colspan="4">60730100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha)</td></tr>
<tr><td>Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:</td><td>B.Hatamkulov - NamMQI, «Qurilish muhandisligi» kafedrasi katta o’qituvchisi, t.f.f.d. PhD</td><td colspan="2">E-mail:</td><td colspan="2">b.nurmuhammad90@gmail.com</td></tr>
<tr><td>Dars vaqti va joyi:</td><td>Auditoriya:№</td><td colspan="2">Kursning davomiyligi:</td><td colspan="2">Arxitektura yo‘nalishi uchun 09.09.2024 y y.</td></tr>
<tr><td>Individual grafik asosida ishlash vaqti:</td><td colspan="5">Shanba kun soat 14.00 dan 17.00 gacha</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Fanga ajratilgan soatlar</td><td colspan="3">Auditoriya soatlari</td><td rowspan="2">Mustaqil ta’lim:</td><td rowspan="2">90</td></tr>
<tr><td>Ma’ruza: -</td><td>Amaliy mashg‘ulot</td><td>90</td></tr>
<tr><td>Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):</td><td colspan="5">“Muhandislik obodonlashtirish va transport”,”Loyihalash-landshaft kompozitsiyasi, grafikasi va loyixalash” va “Landshaft loyixalash”</td></tr>
<tr><th colspan="6">Fanning mazmuni</th></tr>
<tr><td>Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:</td><td colspan="5"><u>Fanni o‘qitishdan maqsad</u> – talabalarga Jamoat binolarili uy yer hududlarini va tematik parklarni landshaft loyixalashning asosiy talablarini,loyixalash amaliyoti, qurilish tendentsiyasi va landshaft tashkil etishning muhim jixatlarini o‘rgatishdan iborat. <u>Fanning vazifasi</u> - talabalarda landshaft loyihalash asosidagi dunyoqarashni shakllantirish va landshaftli loyixalash malakasini rivojlantirish uchun nazariy bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini tarbiyalashdan iborat.</td></tr>
<tr><td>Talabalar uchun talablar</td><td colspan="5">- o‘qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish;<br>- institut ichki tartib - qoidalariga rioya qilish;<br>- uyali telefonni dars davomida o‘chirish;<br>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;<br>- ko‘chirmachilik (plagiat) qatxiyan man yetiladi;<br>- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o‘zlashtirilishi shart;<br>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;<br>- talaba o‘qituvchidan so‘ng, dars xonasiga - mashg‘ulotga kiritilmaydi;<br>- talaba reyting ballidan norozi bo‘lsa, e’lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyasiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin.</td></tr>
<tr><td>Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi</td><td colspan="5">Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha</td></tr>
</table>

<table>
<tr><th colspan="6"><u>Talabalar bilimini baholash tizimi:</u></th></tr>
<tr><th>t/r</th><th>Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi</th><th>Maksimal yig‘ish mumkin bo‘lgan ball</th><th colspan="3">JB va OB ballar taqsimoti</th></tr>
<tr><td colspan="2">I. Joriy baho JB-1 nazorati</td><td>40 ball</td><td>20</td><td colspan="2">15</td></tr>
<tr><td colspan="2">Amaliy mashg‘ulotlarda</td><td>Maksimal ball</td><td>JB-MT</td><td colspan="2">OB</td></tr>
<tr><td>1.</td><td>7-8-semestr davomida ”Landshaft loyixalash” fani bo‘yicha bitta arxitekturaviy vazifa bajariladi. Berilgan mavzular talaba hohishiga ko‘ra tanlanadi. Tanlangan vazifa 18 hafta davomida bosqichma-bosqich bajariladi. Vazifalar baholar JN, ON va YaN shaklida o‘tkaziladi. I-bosqichda mavzu tanlanadi, tanlangan mavzu bo‘yicha vazifa 9 hafta davomida bajariladi va JN natijasiga kiritiladi. Ushbu bosqichning boshlang‘ich qismida klauzura topshirilib, u 4 hafta davomida bajariladi. Uni baholashga 20 ball ajratilgan bo‘lib,semestrda fanga ajratilgan soatga proporsional ravishda olingan. I-bosqichning o‘rtasida yaxni qolgan 5 haftada arxitekturaviy loyihadagi hamma qismlarini masshtabga solib, binoning arxitekturaviy echimi topilib, qo‘l yoki kompyuterda oq qora grafikada bajarilib topshiriladi va uni baholashga 20 ball ajratilgan. Yuqoridagi bosqichlarda bajarilgan vazifalar natijasi va to‘plangan ballar yig‘indisi JN nazoratiga kiritilgan.</td><td>40</td><td></td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">II. Oraliq baho OB-2 nazorati</td><td>30 ball</td><td>JB</td><td>OB</td><td>MT</td></tr>
<tr><td>2.</td><td>II-bosqichda tanlangan vazifaga ko‘ra landshaft loyihasi 9 hafta davomida bajariladi va ON natijasiga kiritiladi. Ushbu bosqichning boshida, yaxni 4 xafta mobaynida eskiz chizilib klauzura topshiriladi. Uni baholashga 15 ball ajratiladi. 4 haftadan so‘ng 5 hafta davomida landshaft loyihalash topshurig‘i masshtabga solinib, qo‘l yoki kompyuter grafikasida oq qora grafikada bajariladi va uni baholashga 15 ball ajratiladi. U ONga kiritilgan. Yuqoridagi bosqichlarda bajarilgan vazifalar natijasi va to‘plangan ballar yig‘indisi ON nazoratiga kiritilgan:</td><td>30</td><td></td><td></td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2">III. Yakuniy nazorat<br>JN va ON yig‘indisi JN+ON = 40b+30b = 70ballni tashkil etadi. Talaba ikkala nazorat ballaridan kami bilan 39 ballni to‘plagan holda YaB nazoratiga topshirishga ruxsat beriladi. III-bosqichda oxirgi hafta jarayonida tanlangan vazifani 55x75smli planshetga joylashtirib, landshaft loyixasining rangli grafikada bajariladi. Vazifani baholashga 20 ball ajratilgan bo‘lib, YaNga kiritilgan. Talabalar o‘zi bajargan Landshaft loyihalash vazifasini himoya qiladi va uni baholashga 10 ball ajratilgan.</td><td>30 ball</td><td colspan="3">Semestrning oxirida talabaning loyihaviy taklifini savol-javobiga qo‘yilgan baho 20+10 ball. Jami: 30 ball</td></tr>
<tr><td colspan="2">Jami:</td><td>100 ball</td><td colspan="3"></td></tr>
</table>

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Mirziyoyev Sh.M..Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M..Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M..Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt tararqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., O‘zbekiston, 2017.
4. Isamuxamedova D.U. “ SHaharsozlik asoslari “ O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2000.
5. “SHaxarsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi”. Isamuxamedov D.U., Adilova L.A. 2010.
6. Mirzaev M.K., Latipov D.V. O‘zbekiston Respublikasi shaxarsozlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.2000 TAQI.
7. Isamuxammedova D.U., Adilova L.A., SHaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi T. Fan va texnologiya 2010 I-II qism.
8. A.S.Uralov,L.A.Adilova.Landshaft arxitekturasi.Darslik.T.:CHo‘lpon nomidagi NMIU,2014.384 b.
9. Adilova L. A. Landshaft arxitekturasi. O‘quv qo‘llanma. IPTD “Uzbekistan”.,2012.

| | |
|---|---|
| **Qo‘shimcha adabiyotlar:** | 1. D.U.Isamuxamedova., A. T. Ismailov.,A. T. Hatomov. Injnerlik obodonlashtirish va transport: darslik / O‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi.-Toshkent: CHo‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 – 160 b.<br>2. Боговая И. О., Фурсова Л. М. Ландшафтное искусство: Учебник для вузов. М.: Агропромиздат, 1988. — 223 с.<br>3. Ландшафтное проектирование. Под общей редакцией Вергунова А.П., М. Стройиздат, 1990.<br>4. Камилова Х.Х., Саттарова К.Д. Проектирование многофункционального парка города.Учебное пособие. - Т.,2010.<br>5. Zaha Hadid. The Complete Buildings and projects. Essay by Aaron Betsky with 448 illustraition, 328 in colour/ Thames and Hudson.<br>**Normativ hujjatlar**<br>6. SHNQ 2.08.01-05 “Turar joy binolari”<br>7. SHNQ 2.08.02-09 “Jamoat binolari va inshootlari”<br>8. SHNQ 2.01.02-04 “Binolari va inshootlarning yongin xavfsizligi”<br>9. QMQ 2.01.03-96 “Zilzilaviy xududlarda kurilish”<br>10. QMQ 2.08.04-04 “Ma’muriy binolar”<br>**Internet saytlari:**<br>11. www.a-len.ru<br>12. www.stroyka.uz<br>13. www.proekts.ru<br>14. www.5ballow.qip.ru<br>15. www.bestreferat.ru<br>16. www.archrecord.construction.com<br>17. www.greensource.construction.com |

# V.«LANDSHAFT LOYIHALASH» FANINI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

## V.1.“Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini xam o‘taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ✓ O‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- ✓ yangi mavzu moxiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ✓ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1-jadval

**“Insert” metodi**

| **Belgilar** | **Ma’lumot** | **Tanishilgan ma’lumotga berilgan izox** |
|---|---|---|
| ”V” – tanish ma’lumot | | |
| ? – mazkur ma’lumot ni tushunmadim, izox kerak. | | |
| “+” bu ma’lumot men uchun yangilik. | | |
| “–“ bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman? | | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz belgan ma’lumotlar O‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izoxlanadi va ularning moxiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob berilib mashg‘ulot yakunlanadi.

## V.2.Muammoli o‘qitish texnologiyasi

**Muammoli o‘qitish texnologiyasi** – bu rivojlantiruvchi o‘qitish texnologiyasi belib, faol bilim orttirish jarayonini rag‘batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketma-ketlik stilini shakllantiradi. Bu texnologiya oliy maktabda eng samarali texnologiyalardan biri xisoblanadi. Muammoli o‘qitish moxiyati o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘qitishda muammoli vaziyatlarni tashkil etish va o‘quv (yaxshisi, xayotiy) masalalar, muammolar va savollarni yechish yo‘li bilan yangi bilimlarni o‘zlashtirish faoliyatini boshqarishdan iborat.

Muammoli vaziyat o‘z moxiyati va mazmuni jixatdan fanlarni o‘qitishdagi mantiqiy ketma-ketlikka o‘xshaydi. Ketma-ketlik printsipi shundan iboratki, bunda ta’limning darajasi jixatdan yuqori xar bir bosqichida o‘qitish mazmunini aniqlashda avvalgi bosqichlarda o‘zlashtirilgan bilimlar, ya’ni ta’lim xisobga olinadi. Xuddi shu kabi, agar vaziyatdagi yangi bilim avvalgi bilim bilan bog‘langan bo‘lsa, u muammoli vaziyat deb xisoblanadi.

Bilish, izlash faoliyati quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Muammoli vaziyat.
2. O‘quv muammosi.
3. Muammoning yechimini izlash.
4. Muammoni yechish va uni tekshirish.

*I.2. Uslubiy ko‘rsatma: xarakat ketma-ketligi (algoritm)*

1) Muammoni savol shakliga keltiring.
2) Asosiy masalani shakllantiring, uning yechimi muammoli savolga javob berish darajasida bo‘lsin.
3) Masalani yechish usullarini tavsiflash imkonini beruvchi asosiy mezonlarni (talab, cheklov, usul, belgilanishlar, kesim o‘lchamlari, materiallarning mustaxkamlik xarakteristikalari, tahlil yo‘nalishi) ayting.
4) Echish algoritmini tuzing.
5) Jamoa bo‘lib tanlangan ko‘rsatkichni baxolang, ularni yoritish ketma-ketligini o‘rnating.
6) Egiluvchi elementlarni normal kesim bo‘yicha xisoblashni bir qator kichik muammolarni shakllantiring va jadvalga yozing.
7) “Echimning mazmuni” ustuniga ularni aniqlash, xisoblash algoritmini (formulasi, tartibini) yozing.
8) Muammoni yechish jadvalini to‘ldiring.
9) Siz tomonigizdan keltirilgan ko‘rsatkichning mustaxkamlikni aniqlash uchun axamiyatini yoriting va oraliq xulosalarni shakllantiring va yozing.
10) Yakuniy xulosani aniq va lo‘nda qilib shakllantiring.

*Muammoni yechish jadvali*

| Muammoning shakllantirilish: | Yakuniy xulosa: | |
|---|---|---|
| Quyi muammolarni shakllantirish | Echimlar mazmuni | Xulosalar |
| 1 | 2 | 3 |
| 1. | | |
| 2. | | |
| 3. | | |

## Ish tartibi va reglament

1. Muammoni yechish va prezentatsiya varag'ini yozish uchun guruxda ishlashga - 20 min.
2. Muammo yechimini prezentatsiya qilish - 8 min. gacha.
3. Jamoa bo'lib muxokama qilish, xulosalarni shakllantirish - 10 min. gacha.
4. O'zaro baxolash - 1 min.

**Baxolash ko'rsatkichlari va me'zonlari**

Xar bir gurux boshqa guruxlar taqdimotini baholaydi, me'zonlar bo'yicha ballarni jamlaydi.

| Baholash ko'rsatkichlari va me'zonlari | Maksimal ball | 1-gurux | 2-gurux | 3-gurux |
|---|---|---|---|---|
| **Echimlar:** | **1,2** | | | |
| - muammoni va kuyi muammoni tegri shakllantirish; | 0,4 | | | |
| - yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi; | 0,4 | | | |
| - mantiqiylik, aniqlik, xulosalarni qisqaligi. | 0,4 | | | |
| **Taqdimot:** | **1,4** | | | |
| - javoblarni aniqligi va tushunarliligi; | 1,0 | | | |
| - xar bir gurux ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar). | 0,4 | | | |
| **Reglament** | **0,4** | | | |
| Umumiy ballar yig'indisi | **3,0** | | | |

**Gurux ishini umumlashtiruvchi baho**

| Gurux | 1 | 2 | 3 | Umumiy ball | Baho (umumiy ball 2 ga belinadi) 2,2 - 3 ball - «a'lo» 1,2 - 2 ball - «yaxshi» 0,5 - 1,1 ball - «konixarli» |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | - | | | | |
| 2 | | - | | | |
| 3 | | | - | | |

**V.3. "Keys-stadi" metodi**

**«Keys-stadi»** - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, xodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod xisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-xodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys xarakatlari o'z ichiga quyidagilarni

qamrab oladi: Kim (Wxo), Qachon (Wxen), Qaerda (Wxere), Nima uchun (Wxy), Qanday, Qanaqa (Xow), Nima-natija (Wxat).

**“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari**

| **Ish bosqichlari** | **Faoliyat shakli va mazmuni** |
|---|---|
| **1-bosqich:** Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish | – yakka tartibdagi audio-vizual ish;<br>– keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);<br>– axborotni umumlashtirish;<br>– axborot tahlili;<br>– muammolarni aniqlash |
| **2-bosqich:** Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshiriqni belgilash | – individual va guruxda ishlash;<br>– muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;<br>– asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| **3-bosqich:** Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshiriqining yechimini izlash, xal etish yo‘llarini ishlab chiqish | – individual va guruxda ishlash;<br>– muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;<br>– xar bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;<br>– muqobil yechimlarni tanlash |
| **4-bosqich:** Keys yechimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | – yakka va guruxda ishlash;<br>– muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;<br>– ijodiy-loyixa taqdimotini tayyorlash;<br>– yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

## V.4.«Fikrlarning shiddatli xujumi» metodi

«Fikrlarning shiddatli xujumi» metodining moxiyati quyidagichadir:

– jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan xar bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarni ruyobga chiqarishga ko‘maklashish;
– o‘quvchilarda ma’lum jamoa (gurux) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli xujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo‘nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin.

Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi xolatlar yuzaga keladi:

1) O‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
2) vaqtni iqtisod qilish;
3) xar bir o‘quvchini faollikka undash;
4) ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish. Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

## «Fikrlarning shiddatli xujumi» metodidan foydalanish bosqichlari

| | |
|---|---|
| 1-bosqich. Ruxiy jixatdan bir-biriga yaqin belgan o‘quvchilarni o‘zida biriktirgan xamda son jixatidan teng belgan kichiq guruxlarni shakllantirish | 2-bosqich. Guruxlarga xal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar moxiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash |
| 3-bosqich. Guruxlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning xal etilishi) | 4-bosqich.Topshiriqlarning yechimlarini muxokama etish, ularni to‘g‘ri xal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish |
| 5-bosqich.Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya’ni, ularni to‘g‘riligi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi me’zonlar asosida baholash | 6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy muloxazalarni muxokama etish xamda ular borasida yagona xulosaga kelish |

## V.5.Munozarali mashg‘ulot

### Munozarali amaliy mashg‘ulotning boshqaruv dastaklari

**Boshlovchi** barcha vazifalarni o‘ziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to‘g‘riligini tasdiqlash, qo‘llangan ibora va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to‘g‘ri qo‘llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to‘g‘ri boshqarish.

**Taqrizchi** - tomonlarning ma’ruzalarini yo‘nalishlar bo‘yicha belgilash va to‘liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jixati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo‘yilganligi, xulosalarning aniq ko‘rsatilishi.

**Raqib** - qabul qilingan tadqiqot o‘rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma’ruzachining asosiy xolatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish xamda o‘zining xal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi xam mumkin.

**Ekspert** - barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

**Munozara reglamentini yetkazish tartibi**

1. Boshlovchi ma’ruza mavzusi va ma’ruzachilarning taqdimotlarini e’lon qiladi.
2. Ma’ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi - 2 minut.
4. Raqib - ma’ruza mavzusi bo‘yicha fikrlarini 1-3 minut takdim etadi.
5. Jamoaviy muxokama - 5-10 minut.

**Baholash ko‘rsatkichlari va me’zonlari**

| **Baholash ko‘rsatkichlari va m’zonlari (ballarda)** | **Munozara ishtirokchilari** | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Ma’ruzachilar (F.I.SH.) | | | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 |
| *Ma’ruzaning mazmuni (2,5):* | | | | |
| - mavzuga mos kelishi (1,5); | | | | |
| - mantiqiylik, aniqlik (0,5); | | | | |
| - xulosalarni qisqaligi (0,5); | | | | |
| *Informatsion texnologiyalardan foydalanganligi (ko‘rgazmalilik) - (0,9).* | | | | |
| *Reglamunt (0,6)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Jami (4,0) | | | | |
| | Taqrizchilar (F.I.SH.) | | | |
| *Ma'ruzaning tavsifi (3,0)* | | | | |
| - ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2) | | | | |
| - ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2) | | | | |
| *Reglamunt (0,6)* | | | | |
| Jami (3,0) | | | | |
| | Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.SH.) | | | |
| *Savollar:* | | | | |
| - xar biri uchun (0,3) | | | | |
| *Qo'shimcha* | | | | |
| - xar biri uchun (0,3) | | | | |
| - moxiyati bo'yicha (0,3) | | | | |
| - Jami (3,0) | | | | |

## Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xissiyotlaringni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va muloxazali yondosh.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan xolda to'g'ri yondashib gapir.

## V.6.«Aqliy xujum»

**«Aqliy xujum» -** (Brain Storming) usuli universal qo'llanish xarakteriga ega. Bu usul 1963 yilda Osborn (AQSH) tomonidan birinchi bo'lib qo'llanilgan. «Aqliy xujum» ning vazifasi mikrogurux yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdir, yoxud mikroguruxning yaxlitligidagi kuchi uning aloxida a'zolari kuchlari yig'indisidan ko'p bo'ladi. «Aqliy xujum» muammoni hal qilayotgan kishilarning ko'proq, shu jumladan aql bovar qilmaydigan va xatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning xech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin. Bu - «aqliy xujum» ning negizidagi tamoyildir. «Aqliy xujum» muammo yoki topshiriqning eng to'g'ri yechimiga oid g'oyalar bankini yaratish maqsadida qo'llanadi.

«Aqliy xujum» quyidagi qoidalar bo'yicha o'tkaziladi:

- fikr xech qanday cheklanmagan xolda, iloji boricha balandroq ovozda aytilishi lozim;
- xar qanday fikrni aytish mumkin, u qabo'l qilinadi.
- g'oyalarga tushuntirish berilmaydi, ular vazifaga bevosita bog'liq holda aytiladi;
- takliflar berish to'xtatilmaguncha, aytilgan g'oyalarni tanqid yoki muxokama qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- ekspert guruxi yoki magnitofon barcha aytilgan takliflarni yozib boradi.

«Aqliy xujum» to'xtatilgandan so'ng, ekspertlar guruxi aytilgan barcha g'oya (fikr) larni muxokama qilib, eng maqbulini tanlaydi. «Aqliy xujum» ni - ma'ruzalarda yakka tartibda yoki juftlik (uchlik)da, amaliy va seminar mashg'ulotlarda esa, 4-6 kishidan iborat mikroguruxlarda, shuningduk, gurux bo'yicha va yakka tartibda xam o'tkazish mumkin. «Aqliy xujum» mashg'ulotlarda talabalar faolligini oshirishga, barchani mavzuning eng maqbul yechimini izlashga sharoit yaratadi.

Mavzuni uzlashtirishda «Aqliy xujum» uchun g‘oya shaklida mavzuda qo‘llaniladigan, lekin talaba oldingi o‘zlashtirgan fanlari bo‘yicha ma’lum fikrlarga ega bo‘lgan suz va iboralarga aniqlik kiritish yo‘li bilan tashkil qilish mumkin.

## V.7.Blum taksonomiyasi

**Blum savollari**. Kuzatishlar va pudagogik adabiyotlarni tahlil qilish-talabalarning fikrlash kobiliyatini rivojlantirishning muxim omili-O‘qituvchining ularga va talabalarning o‘zaro bir-birlariga beradigan savollari ekan. Ta’kidlanishicha, o‘qituvchilarni talabalarga beradigan savollarining 80-85 foizi, faqat daliliy bilimlarnigina talab qilib, ular javob berishda xotirada qolganlarini takroran so‘zlash (bajarish) bilangina cheklanar ekanlar. SHuning uchun bo‘lsa kerak, talabalar o‘zlashtirgan bilimlar ko‘p xollarda kitobiy bo‘lib, ularni amalda qo‘llashda jiddiy kiyinchiliklarga duchor bo‘lishlari xam sir emas.

Xo‘sh, qanday savolni fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi savollar qatoriga qo‘shish mumkin? Bizning fikrimizcha, to‘g‘ri javobi o‘quv adabiyotlarda yaqqol bayon etilmagan yoki o‘qituvchi tomonidan aytib berilmagan savolgina talabani fikrlashga majbur qiladi. Bunday savollarga jaxon pedagogikasida «Blum savollari» nomi bilan bilan mashxur va o‘zlashtirishning oltita: bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash darajalariga muvofiq bo‘lgan savollar misol bo‘lishi mumkin. Masalan: «Nima uchun?», «Taqqoslang?», «Tarkibiy qismlarga ajrating?», «Eng muxim xususiyatlari nima?», «Buni siz qanday xal qilgan bo‘lardingiz?», «Bunga munosabatingiz qanday?», kabi savollar talabalarni yuqori intelluktual amallar (tahlil, sintez, baholash) darajasida fikrlashga undaydi. Yoki, matndan parcha o‘qib bo‘lgandan so‘ng, talabalarni fikrlashga undovchi quyidagi savollarni berish xam maqsadga muvofiqdir: «Bu parchaga qanday sarlavxa qo‘yish mumkin?», «Parchadan uni mazmunini to‘la-to‘kis anglatuvchi beshta tayanch so‘z toping?», «Siz muallifga qanday savol bergan bo‘lardingiz?».

O‘qituvchining talabalarga beradigan savoli to‘g‘risida fikr yuritilar ekan, uning aniq, lo‘nda, tushunarli va ixcham bo‘lishi xamda bir savol bilan faqat bitta o‘quv elementi (tushuncha, qonun, qoida va x.k.) so‘ralishi zarurligini aloxida ta’kidlash lozim. Berilgan savollar mazmunida mavzuga yoki matnga oid tayanch so‘z va iboralardan foydalanish xam muhimdir. Blum taksonomiyasi toifalari bo‘yicha beriladigan quyidagi savollar namuna sifatida tavsiya etiladi.

## V.7.Klaster tuzish

**Klaster - «axborotlarni yoyish».** «Klastur» - inglizcha so‘z bo‘lib, g‘uncha, bog‘lam ma’nosini anglatadi. Axborotlarni klasterlarga ajratish interfaol pedagogik strategiya bo‘lib, u ko‘p variantli fikrlashni, o‘rganilayotgan tushuncha (xodisa, voqea)lar o‘rtasida aloqa o‘rnatish malakalarini rivojlantiradi, biror mavzu bo‘yicha talabalarni erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashiga yordam beradi. Klasterlarga ajratishni darsning da’vat, anglash va muloxaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag‘batlantirish uchun qo‘llash mumkin. Asosan, u yangi fikrlarni uyg‘otish va muayyan mavzu bo‘yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.Klaster tuzish ketma-ketligi quyidagicha:

- auditoriya yozuv taxtasi o‘rtasiga katta qog‘oz varag‘iga asosiy so‘z yoki gapni yozing;
- sizni fikringizcha bu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zlar yoki gaplarni yozing («aqliy xujum») o‘tkazing;
- tushuncha va g‘oyalar to‘g‘risidagi o‘zaro bog‘lanishini o‘rnating;
- eslagan variantlaringizning xammasini yozing.

# VI.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

## 6.1.Jamoat binolari xududini landshaft loyixalash

Loyihalashning asosiy bosqichlari va elementlari quyidagilardan iborat:

1.Jamoat binolari hududini funktsional bo‘laklarga bo‘lish.

2.G‘oyaviy badiiy ...... ishlab chiqish

3.Hududni funktsional rejaviy tashkil etish oid bosh rejasini ishlab chiqish.

4.Hududni dendroplanini va profili (qirqimi)ni ishlab chiqish.

5.Muhandislik tarmoqlarini tashkiliy rejalashtirish.

6.Hudud bo‘yicha mavjud holatni tahlil qilish

7.Hududni landshaft holatini tahlil qilish

8.Hududni ekologik tahlil qilish

9.Hududni fazoviy (rasmlarni va nuqtalarni ko‘rinishiga oid) kompozitsiyasini ishlab chiqish.

1. Jamoat binosining loyihalashgacha holati



2.Hududni kompleks tahlili




3. Hududlarni funktsional bo‘laklarga bo‘lish



4.Landshaft elementlarini bo‘laklarga bo‘lish




5.Landshaft elementlarini funktsional rejaviy tashkil etish




6. Landshaftni funktsional fazoviy tashkil etish




7.Jamoat binolari sathining yuqoridan ko‘rinishi (aksonometriyasi)



Mo‘jaz bog‘lar haqidagi ilk tushunchalar o‘tgan asrning 70-yillarida shakl-lantirilgan bo‘lib, ular A.S.Zalesskaya va YE.M.Mikulinalarning "Landshaftnaya arxitektura" (1979) kitobida keltirilgan. Ushbu kitobda mo‘jaz bog‘lar quyidagi guruhlarga bo‘lingan:

- turarjoylar qoshidagi doimiy foydalaniluvchi bog‘lar;
- vaqtinchalik foydalaniladigan mavsumiy bog‘lar (bularga shahardan tas-hqaridagi dam olish bog‘lari: tog‘lar qo‘ynida, daryolar sohilida va hokazo bog‘lar kiradi);
- shahar oldi zonalaridagi shanba va yakshanba kunlari dam olinadigan bog‘lar.

### 1. Kottej tipidagi Jamoat binolari bog‘larini loyihalash

Jamoat binolari bog‘iga misol tarzida qishloq uylari Jamoat binolarisini me'moriy landshaft loyihalash mavzusini qarab chiqaylik.

Jamoat binolarini saranjom tutish, Jamoat binolari ekinlari va xo‘jalik imoratlarini o‘rniga joylash-tirib, Jamoat binolarisini chiroyli va obod qilish Jamoat binolarili uy qurgan har bir oilaning orzu-istagi-dir. Bu ishlar qancha tola va sifatii bajarilsa, oila hayoti shuncha fayzli, obod va shirin kechadi, Jamoat binolaridan foydalanish oson va serunum bo‘ladi.

Jamoat binolarini rejalashtirish Jamoat binolari hududini funksional zonalarga bo‘lib chiqishdan boshlanadi. Qishloq uylari Jamoat binolarilarining hududi, odatda, quyidagi zonalarga bo‘li-nadi:

Har bir zona uchun Jamoat binolari yuzasidan maqsadga muvofiq va foydalanishga qulay bo‘lgan joy tanlanishi kerak. Xo‘jalik va maishiy imoratlar zonasiga, odatda, Jamoat binolarining ichkari, to‘r qismidan joy ajratiladi. Xo‘jalik zonasi tarkibiga kiruvchi omborxona, o‘tinxona, molxona, yemxona va boshqa xonalar bajaradigan xiz-mat turiga qarab joylashtiriladi. Bunda ular Jamoat binolarining butun enini yoki bir qismini egallashlari mumkin. Xo‘jalik va maishiy imoratlar, ularning tarkibi va Jamoat binolarida joylashish tartiblariga alohida to‘xtalib o‘tamiz.




Poliz ekinlari uchun uchastkaning quyi tomonidan xo‘jalik imoratlari yonida yoki uning atrof-chetlarida joy ajratish maqsadga muvofiqdir. Poliz ekinlarining suv-ga talabchanligini e'tiborga olib, ularni Jamoat binolari yuzasidan nisbatan pastroqda ekkan ma'qul. Bu, kuz paytlari yomg‘ir suvlarining oqib tushishiga ham qulaylik yaratadi. Odatda, poliz ekinlari uchun Jamoat binolari maydonining 25 - 30%, mevali o‘simliklarga 30 -40%, yashash uyi, xo‘jalik imoratlari hamda yo‘llar uchun 30-40% ajratiladi.

Dastlabki 5-10 yillar davomida poliz ekinlari mevali daraxtlar qator oralariga ekilishi mumkin. Bog‘bonlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, olma bog‘i vaqt-vaqti bilan qirqilib turiladigan

maysazor yoki bedapoyada ham yaxshi yetilishi mumkin, chunki bedapoya tuproq tarkibini saqlashga va undagi bioximik jarayonlarga sharoit yaratadi. Bundan tashqari beda mollar uchun eng yaxshi qo‘shimcha yemish sifatida foydalidir.

Uy va yashash Jamoat binolarisi zonasi, ayvon, peshayvon, umumiy Jamoat binolarining old qismi, uyga kiraverish joyi va uydan so‘nggi Jamoat binolari ichkarisiga chiqishdagi joylar gullar va manzarali daraxtlar bilan bezatilishi maqsadga muvofiqdir. Qalin soya beruvchi baland daraxt va butalarni uyga yaqin masofaga ekmaslik kerak, chunki yashash xonalari kun bo‘yi soyada qolib, uy devorlarining namligi (zax) oshishi mumkin.

Gullarni tanlashda ularning ochilish mavsumiga e'tibor berish lozim. Umuman, gullarni shunday ekish kerakki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlasin. Xalqimiz gullarni tanlab ekishda qadimdan an'anaga aylanib qolgan mahalliy va zamonaviy gullardan foydalanadi. Shunday gullardan ayrimlarini sanab o‘tamiz: rayhon, atirgul, binafsha, namozshomgul, nargiz, gulira'no, nilufar, shabbo‘y, gultojixo‘roz.

Manzarali daraxtlar orasida qishin-yozin ko‘m-ko‘k bo‘lib o‘suvchi archasi-mon, ninabargli daraxtlar ham bolishi mumkin. Shunday qilinganda uy atrofidagi kirib-chiqish joylarining saranjom-sarishta, tartibli va manzarali bolishi ta'minlanadi. Nina bargli daraxtlar va gullar o‘zlaridan xushbo‘y hidlar chiqarib, havoni toza va soglom qiladi, uy-joy va Jamoat binolari ko‘rinishiga o‘ziga xos go‘zallik baxsh etadi.

Qishloqda ko‘p bolali oilalar yashashini e'tiborga olgan holda Jamoat binolari ichida uyga yaqin joydan bolalar uchun maxsus maydoncha ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday joy bolalarning yoz kunlari kunduz, ayniqsa, kechqurunlari Jamoat binolarida ochiq havoda yayrab o‘ynashlari uchun qulaylik tug‘diradi. Bolalar may-donchasining usti yengil konstruksiya bilan yopilishi, yonlari esa ochiq bo‘lishi mumkin. Maydoncha janubiy-g‘arbiy va g‘arb tomondan soya beruvchi manzarali daraxtlar va butalar, qolgan tomonlardan esa yashil to‘siqlar bilan to‘silishi lozim.

Ayrim Jamoat binolarilarda uy atrofidagi kirib-chiqish joylariga mevali daraxtlar zich ekilganligini ko‘ramiz. Bunday hollarda yoz pishiqchiligida daraxtlar osti tagiga tushgan mevalarning bosilishi, ifloslanishi, har xil qurt-qumursqalar va besaranjomlik kuzatilishi mumkin. Bunday joyda yoz paytlari ochiq xavoda chorpoyada o‘tirib hordiq chiqarish ancha noqulay, qishda esa manzaradan ancha boy berilishi mumkin. Bundan tashqari, mevali daraxtlar bolalar ko‘ziga yaqin bo‘lmagani ma'qul. Shuning uchun ham mevali daraxtlar zonasining katta qismi Jamoat binolarining tuprog‘ida, poliz ekinlari bilan yashash Jamoat binolarisi oralig‘ida yoki ularga tutashib joy-lashganligi maqsadga muvofiqdir.

Mevali daraxtlar zonasida avval yo‘ng‘ichqa, beda uchun joy tayyorlanadi. Bedazordan alohida joylar ajratilib, ulardan biriga anor, ikkinchisiga behi, uchinchisiga shaftoli, to‘rtinchisiga esa nok ekilishi mumkin. Yozda qish va bahor fasllariga nisbatan sabzavot, qovun, tarvuzlar ko‘p bo‘lganligi sababli ho‘l mevaga talab kamroq bo‘ladi. Shuning uchun Jamoat binolaridagi mevali daraxtlar orasida ko‘proq kechki olma, nok navlari jami ekiladigan daraxtlarning 70-80% ini tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Yashash Jamoat binolarisidagi chorpoya atroflarini qator uzum ishkomlari bilan yopilganini ko‘ramiz. Bunday uslub faqat shu chorpoya atroflari uchungina ma'qul bo‘lib, uni bir tomondan

yopishi mumkin. Uy atroflarini esa pastak qator ishkomlar bilan yopish yaramaydi, chunki ular yozda shamolni to‘sib qo‘yadi va manzarani oddiylashtiradi. Shuning uchun ham uzum ishkomlari chorpoyadan ancha ko‘tarilgan, havodor bo‘lishi kerak. Chorpoya va ayvondan Jamoat binolariga chiroyli tabiiy manzara ochilishini ta'minlash lozim.

Ba'zan chorpoya Jamoat binolarining ichkarisida joylashgan bo‘lib, atrofiga ariq qazilgan, oldiga quvur bilan suv olib borilib, mo‘jaz shakldagi favvora ishlangan bo‘lishi mumkin. Favvora va chorpoya atroflariga qizil olma daraxti ekilsa, pishiqchilikda olmalar favvoradagi suv ustiga tushib taftini oladi.

Issiq va quruq iqlimli respublikamiz sharoitida soya-salqin joylar, chorpoya, ishkom, hovuzcha va ariqiar Jamoat binolarining muhim elementlari hisoblanadi.Ana shunday mo‘jaz Jamoat binolari elementlaridan foydalanishni yaxshi bilgan ota-bobolarimiz, yozning jazirama issiq kunlarida ham ular yordamida Jamoat binolarida salqin, bahavo mikroiqlim vujudga keltirishgan, ostidan ariqlar o‘tgan chorpoyalarda ishkomlar soyasida o‘tirib, ishdan bo‘sh paytlarda suhbatlashgan, mehmon kutishgan, miriqib dam olishgan.

Bugungi kunda xalqimiz tajribasida chorpoyalar asosan ikki xil materialdan: yog‘och taxtadan va temirdan ishlanadi. Yog‘och va temir chorpoyalar ko‘chma bo‘lganligi uchun foydalanishga qulay, ayniqsa, temir supalar juda qulay bo‘lib, ular qishda yig‘ib qo‘yilishi ham mumkin.




1-rasm. Tabiiy toshlar va pishiq g‘ishtlardan ishlangan yo‘laklar:

*a) tosh oralariga maysa ekilgan yo‘lak qirqimi: 1 - tosh; 2 - qum; b) tosh oralariga qohshma solingan yo‘lak qirqimi: 1 - tosh; 2 - qum; 3 - bir tekis qilib solingan qorishma; v) oralariga qorishma solingan chag‘irtosh yo‘lak qirqimi: 1 - maydalangan chag‘irtosh, 2 - qum; 3 - tekis tarashlangan tosh-bordyur; 4 - tekis solingan qorishma*

Bunday yashil devorning balandligi 1-2 metrdan oshmasligi kerak. Keyingi rasmlarda respublikamizning har xil tabiiy iqlim zonalariga mos ravishda xo‘jalik imoratlariga ega qishloq uylari Jamoat binolarisining qulay yechimlari, Jamoat binolarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Ularda shaxsiy yordamchi xo‘jalik yuritish

uchun sharoit, yashash va hordiq chiqarishga estetik qulay landshaft muhitini ta'minlovchi omillar hamda mahalliy shart-sharoitlar e'tiborga olingan.

Jamoat binolarida xo‘jalik yuritishga vaqti bo‘lmagan va Jamoat binolarining sof manzaraviy tabiiy landshaft ko‘rinishini xohlovchilar uchun esa quyida Jamoat binolarining bir nechta me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlaridan namunalar keltirilgan (2-4-rasmlar). 5-rasmda hududi noan'anaviy shaklga ega bo‘lgan Jamoat binolari maydonini landshaft loyihalashning 3 xil uslubi ko‘rsatilgan.

Yuqorida bayon qilingan takliflarga rioya qilish uy-joyni shinam, Jamoat binolarini fayzli qilishga va Jamoat binolari uchastkasidan serunum va qulay foydalanishga yordam beradi.

Jamoat binolari ichi yo‘laklarining soni iloji boricha kam bolgani ma'qul: ularni zarur joylardangina o‘tqazib soya bilan ta'minlash kerak. Yo‘laklar g‘ishtdan, g‘isht siniqiaridan, tabiiy toshlardan, shag‘al qo‘shilgan betondan ishlanishi mumkin (1-rasm). Ularning eni 1 metr atrofida bo‘lishi kerak.




2-rasm. Jamoat binolari maydonini obodonlashtirish bo‘yicha takliflar
a) cho‘l va dasht zonasi uchun mo‘ljallangan Jamoat binolari;b) qulay iqlimli vodiy va tog‘ vohalariga mo‘ljallangan Jamoat binolari;1 - turarjoy uyi; 2 - xo‘jalik va maishiy imoratlar; 3 - Jamoat binolari; 4 - mevali bog‘; 5 – sabzavot va poliz ekinlari; 6 - chorpoya; 7- bolalar o‘ynaydigan joy; 8 - uzum ishkomi; 9 - avtomashina joyi; 10 -jiyda, bodom va boshqa daraxtlar; 11 - berk devor; 12 – pastqam to‘siq; 13 - yashil devor; 14 - go‘ng saqlashjoyi; 15 - ariq

### 2. Jamoat binolari bog‘larini loyihalashning applikatsiya usuli

Applikatsiya-qirqib yasalgan turli rangli qog‘ozlar yoki mato bo‘laklarini biror yuzaga, masalan, qog‘oz yuzasiga yopishtirib chiqishni yoki shu usulda bajarilgan ijodiy kompozitsiya yoki loyihani bildiradi. Mazkur bo‘limda Jamoat binolari bog‘ini landshaft loyihalashning applikatsiya usuli

bayon qilingan. Mazkur usul Olga Voronovaning "Landshaftniy dizayn shag za shagom" (Moskva, 2011) kitobida ko‘rsatib berilgan. Quyidagi keltirilgan chizmalar ushbu kitobdan olindi.

Jamoat binolarilar har xil bo‘ladi. Biri kottej tipidagi xususiy uy Jamoat binolarisi bo‘lsa, boshqa-si qishloqiarda qurilayotgan yangi uy joylar Jamoat binolarisi. Yana biri biron-bir jamoat binosining Jamoat binolarisi va h.k. Xullas, Jamoat binolaringiz bor, biroq uning me'moriy-rejaviy va landshaft yechimi, aniqrog‘i, loyihasi yo‘q. Buning uchun loyihachiga buyurtma bermoqchimisiz yoki bunday loyihani o‘zingiz ishlab ko‘rmoqchimisiz? Agar uni o‘zingiz ishlamoqchi bo‘lsangiz, siz uchun bu ishning eng oson yo‘li applikatsiya usulidir. Unda sizdan quyidagilar talab qilinadi:

1. Jamoat binolaringizning boshlang‘ich chizmasi, ya'ni tarhi.
2. Loyihalash anjomlari (ulardan foydalanib Jamoat binolarini loyihalaysiz).
3. Loyihalashning bosqichma-bosqich harakat jarayoni (ya'ni loyihalashda siz bajaradigan ketma-ket amallar).



3-rasm. Jamoat binolari landshaftini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar(Xelga Gropper kitobidan olindi)



4-rasm. Jamoat binolari landshaffini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar (Xelga Gropper kitobidan olindi)



A



B



V

**5-rasm.** Hududi noan’anaviy shaklda bo‘lgan Jamoat binolarini landshaft loyihalashning 3 xil us- lubi: a - *muntazam rejali; b - erkin tabiat rejali; v - aralash rejali*

Xo‘sh, Jamoat binolarini applikatsiya usulida landshaft loyihalash nimadan boshlanadi?

Eng avvalo Jamoat binolaringizning 1:100 masshtabda ishlangan rejasini tuzib chiqing. Buning uchun qurgan imoratingiz va Jamoat binolaringizga berilgan hujjatlardan foydalaning, ularda Jamoat binolaringizning shakli va chegaralari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. U kichik masshtabda bo‘lsa, siz uni

100 masshtabga o‘tkazishingiz kerak. Bu masshtab Jamoat binolarini me'moriy rejalashtirish va landshaft loyihalash uchun juda qulaydir. Chunki unda chizmaning 1 santimetriga Jamoat binolarining 100 sm to‘g‘ri keladi va siz bundan foydalanib Jamoat binolaringizning har bir qismini chizmada aniq aks ettirishingiz mumkin.

Loyihalash anjomlari tarzida siz kalka, ya'ni shaffof qog‘oz, qalam, flomaster, qaychi, millimetrofka, lineyka yoki qo‘lbola tarzida ishlangan "bog‘ konstruktori"dan foydalanishingiz mumkin.

Shaffof qog‘oz, ya'ni kalka bu nima? U chizmani ko‘chirish uchun zarur bo‘lib, siz uni Jamoat binolarining rejasini tuzishda va loyihani ishlab chiqishda foydalanasiz. Jamoat binolarini loyihalashning har bir bosqichini kalkada aks ettirasiz, ya'ni Jamoat binolaringizning 1:100 masshtabda ishlangan chizmasi ustiga kalkani qo‘yib, eng avvalo, Jamoat binolarida qanday ob’yektlar (masalan, yozgi oshxona, favvora, dam olish zonasi, poliz, gulzor va boshqalar)ni joylashtirmoqchi bo‘lsangiz, ularni kalkaga shartli belgilar yordamida chizib chiqasiz.

Quyida Jamoat binolarini kalka yordamida loyihalash bo‘yicha bajaradigan ishlaringiz bosqichma-bosqich tushuntirib beriladi. Har bir jarayon uchun alohida kalkalar kerak boladi. Bunda har bir bosqich oldingisini to‘ldirib, loyihalash mazmunini boyitib borishi kerak. Kalkaga o‘zingiz xohlagan ob’yektlar, landshaft va obodonlashtirish elementlarini to‘g‘ri va aniq chizish shart emas. Siz ularni kalka shartli tarzda, ya'ni oddiy geometrik shakl va figuralar tarzida (doira, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak kabi shakllarda, faqat chizma masshtabiga mos tarzda va ranglarda) belgilab chizing.

Qo‘lbola tarzda ishlangan "bog‘ konstruktori" - bu rangli karton yoki qa-lin rang qog‘ozdan o‘zingiz qo‘lda qaychi bilan qirqib yasagan detallar, ya'ni "applikatsiyalardir. Ular siz loyihalayotgan Jamoat binolarida joylashadigan ob’yektlar va o‘simliklar, landshaft elementlari rolini bajaradi. Daraxtlarni aylana, butalarni kichikroq aylanalar shaklida bir xil yashil ranglarda masshtabga mos tarzda qirqib chiqasiz. Unutmang, chizmangizning 1 sm ob’yektlarning 1 metri joylashgan. Jamoat binolaringiz ichidagi yo‘lakchalarni loyihalash uchun rangli qog‘ozdan mayda to‘rtburchaklar yoki romblarni qirqib chiqing. Ulardan foydalanish juda oddiy: siz ularni 1:100 masshtabdagi Jamoat binolaringiz chizmasi ustida xohlagancha harakatlantirib, Jamoat binolaringizning o‘zingiz ma'qul ko‘rgan joylariga joylashtirib chiqasiz. Bu ishni bir nechta variantlarda bajarib, ular ichidan eng ma'qulini tanlaysiz va shundan so‘ng "konstruktor" qismlari, ya'ni applikatsiya qilingan Jamoat binolaringiz ob’yektiarini chizma ustiga yopishtirib (yelimlab) chiqasiz.

Har ikkala holatda ham, ya'ni kalkadan yoki konstruktordan foydalanganingizda ob’yektlarni Jamoat binolariga joylashtirishda ergonomika talablarini, ya'ni ob’yektlami inson o‘lchamlariga mos va foydalanishga qulay qilib joylashtirishni unutmang. Axir, sizning bo‘lajak Jamoat binolari bog‘ingiz nafaqat chiroyli, balki foydalanishga va in-sonlarga qulay bolishi kerak.

Buning uchun sizga Jamoat binolaringiz chizmasi masshtabida ishlangan inson figurasi kerak bo‘ladi. Uni yog‘ochdan yoki o‘zingiz ham yasasangiz bo‘ladi. Siz uni chizmaga tik holda joylashtirib Jamoat binolari ob’yektlari masshtabiga taqqoslasangiz bo‘ladi. Endi Jamoat binolarini applikatsiya usulida loyihalashning bosqichma-bosqich jarayonlarini ko‘rib chiqaylik.

Birinchi amal - bu Jamoat binolari hududini zonalarga bo‘lib chiqamiz. Bu - Jamoat binolaringizda qanday funksional zonalar bolishi va ular Jamoat binolaringizning qayerida joylashishini aniqlashdir.

Zonalar aslida Jamoat binolarining alohida qismlari bo‘lib, ular Jamoat binolari bog‘ini foydali va chiroyli landshaft tarzida shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, yashash zonasiga o‘z uyingiz, ayvon (terrasa), yozgi oshxonalar kirsa, yozda dam olinadigan va ovqatlanadigan joy, chorpoya, favvora, gulzorlar, dam olish zonasiga kiradi. Xo‘jalik zonasiga esa bog‘ va poliz ekinlari, qishloqlarda ustaxona, molxona va boshqa xo‘jalik imoratlari kiradi.

Jamoat binolari bog‘ida qanday zona (qism)lami tashkil qilish yoki qilmaslik - o‘zingiz va oilangizning ish faoliyatiga, nimalar bilan shug‘ullanishingiz va nihoyat, bog‘ landshaftini tashkil qilishdagi didingizga, Jamoat binolari hududini qanday landshaft uslubida ishlashni xoxlashingizga bogliq. Bu yerda aniq va qat'iy qoidalar yo‘q. Masalan,Jamoat binolaringizda mo‘jaz jannatmakon manzaraviy bog‘ yaratmoqchimisiz yoki an'anaviy xo‘jalik bog‘ini? Shuning uchun Jamoat binolaringizda qanday zonalar bo‘lishini o‘zingiz o‘ylab ko‘ring. Biroq o‘ylagan har bir zonangiz aniq o‘z hududiga ega bolishi shart.

O‘ylagan va siz aniqlagan, ya'ni xohlagan zonalarni Jamoat binolari chizmasiga shartli tarzda chizib, joylashtirib chiqasiz (6-rasm). Har bir zonaning o‘lchamini ham o‘zingiz belgilang. Jamoat binolaringiz plani 100-masshtabda ekanini yoddan chiqarmasangiz bo‘lgani.

Agar sizning Jamoat binolari uchastkangiz yangi va unda imoratlar bo‘lmasa, Jamoat binolari zonalari uchun joy tanlash masalasiga alohida e'tibor bering. Jamoat binolari yuzining tekis yoki notekisligiga, Jamoat binolaringizning tabiiy sharoitiga qarang, ularga hamda uyingiz kirish va chiqish joylariga, zonalar funksiyasiga mos ravishda ularga joy tanlang. Zonalar joyi aniq bo1gach ularni Jamoat binolari chizmasiga turli rang qalam yoki flomas-terda chizib nomlarini yozib chiqqach, kalkaga ko‘chirib oling.

Ikkinchi amal Jamoat binolari chizmasiga barcha asosiy ob’yektlarni joylashtirib chiqishdir, ya'ni joylari va taxminiy hududi chizmada o‘zingiz belgilagan funksional zonalarga mos ob’yektlarni o‘z o‘rniga joylashtirib chiqasiz (7-rasmlar).




6-rasm.Jamoat binolari hududini zonalarg bo‘lish



7-rasm.Jamoat binolari tarhida barcl asosiy ob’yektlarni joylashtirish

Bunda oldindan tayyor qilib qo‘ygan rangli konstruktor, ya'ni applikatsiya elementlaridan foydalanasiz: ulardan biri favvora, boshqasi bog‘ hududidagi dam olish zonasiga o‘matiladigan ko‘shk yoki dam olish va ovqatlanish ko‘shki, suv havzasi, ustaxona, garajlarning shartli belgilari.Ularni Jamoat binolari chizmasi ustida harakatlantirib va turli variantlarda joylashtirib ko‘rib, bu ob’yektiarning sizga yoqqan o‘rnini aniqiaysiz va ularni chizmaga yelimlaysiz. Bunda ham ularning Jamoat binolari masshtabiga va inson ergonomikasiga mos kelishi zarurligini unutmang.

Uchinchi amal Jamoat binolari yo‘laklarini belgilash va joylashtirib chiqish. Bu amal ikkinchi amalning uzviy davomi hisoblanib, Jamoat binolari ob’yektiarini o‘zaro bog‘lovchi yo‘laklarning turlarini qanday o‘tkazilishini va o‘rnini belgilab beradi (8-rasm).

Konstruktorda yo‘laklar uchun qirqib tayyorlangan detallarni Jamoat binolari chizmasiga joylashtirib va harakatlantirib, Jamoat binolarida eng quiay va to‘g‘ri harakatlanish yolaklari aniqlab olinadi va ular Jamoat binolari chizmasiga, ya'ni ikkinchi amalga bajarilgan chizma ustiga yelimlab chiqiladi.

To‘rtinchi amal - Jamoat binolaringiz hududida yuqorida belgilangan funksional zonalar, ob’yektlar va yo‘laklarga mos holda ekilishi kerak bo‘lgan daraxt va butalarning joylarini aniqlab chiqishdir. Yashil rangdagi aylana shakllar, ya'ni da-raxtlarni bildiruvchi konstruktor applikatsiyalarini Jamoat binolari rejasida harakatga keltirib chizmaga joylashtirib chiqasiz (9-rasm). Bunda daraxtlar va butalar qatoridagi masofani to‘g‘ri aniqlash hamda quyosh harakatini e'tiborga olish zarur. O‘simliklar quyoshni sevuvchi organizmlardir. Aynan daraxtlar va butalar Jamoat binolaringiz landshaftini

shakllantiruvchi asosiy elementlar ekanligini unutmang. Siz ularni Jamoat binolaringiz chizmasiga to‘g‘ri joylashtirib, qancha daraxt va butalar ekilishini ham bilib olishingiz mumkin (9-rasm).

Beshinchi amal - gulzorlarni joylashtirish. Gulzorlar bu gullar va bargi manzarali o‘simliklardan ekilgan gulli kompozitsiyalardir. Gulzor, odatda, Jamoat binolaringizdagi maysazor foniga, yo‘laklar yoki ko‘shklar, chorpoya chetiga, shuningdek, konteynerlarga ham o‘rnatilishi mumkin. Gulzorlar, albatta, hoshiya bilan chegaralanishi kerak. Hoshiya tabiiy toshlardan, g‘ishtdan, yog‘ochdan, sopoldan, shag‘aldan, vibrolitdan va boshqa materiallardan ishlanishi mumkin.

Gulzorlar, odatda, bir yillik yoki ko‘p yillik gullar va manzarali o‘simliklardan shakllantiriladi. Gulzorlarning shakli va xili turlicha: erkin va aralash gulzorlar, klum-balar, modulli gulzorlar va hokazo. Ularning turi va shakli Jamoat binolari bog‘ining stili, kompozitsiyasi, Jamoat binolarining tuzilishi va albatta, sizning didingiz va farazingizga bog‘liq. Gulzorlar shakli va turi aniqlangach, ular Jamoat binolari tarhiga chizib chiqiladi (10-rasm).

Oltinchi amal - Jamoat binolarida tik ko‘kalamlarni shakllantirishdir. Tik ko‘kalamlashtirish bu o‘simliklar bilan bog‘liq landshaft qurilmalar bo‘lib, ular an'anaviy voish, pergola, trelyaj, devor, ravoq va shu kabilardan shakllantiriladi va albatta, tirmashib o‘suvchi "Han" bilan ko‘kalamlashtiriladi. Bu qurilmalarning Jamoat binolari rejasidagi o‘rni uzun va tor to‘g‘ri burchaklilar yoki taqalar ko‘rinishida belgilab chiqiladi (11-rasm).Tik ko‘kalamlashtirishda qollanadigan o‘simliklarga partenotsissus, Xitoy glitsiniyasi, yapon jimolosti, Broun jimolosti, Jakman va sharq lomonosi, tekoma va boshqalar kiradi. Ular nafaqat quyuq soya beruvchi va tirmashib o‘suvchi, balki manzarali gullovchi o‘simliklardir.



8-rasm.Yoiaklar joylanishini aniqlash



9-rasm.Daraxt va butalamir joylanishini aniqlash

Yettinchi amal - Jamoat binolari boglngizga kechgi chiroqlarni joylashtirishdir. Jamoat binolari bog‘ingizda endi ko‘pgina ob’yektlar paydo bo‘ldi. Shunday ekan ularning qaysi birini kechgi yorug‘lantirish haqida ham o‘ylash zarur. Chiroqlarni loyihalash uchun konstruktoringizda ichiga iks belgisi chizilgan kichik aylanalar tayyorlab, ularni chiroqlar o‘rnatiladigan joylarga yopishtirib chiqing (12-rasm).

Sakkizinchi amal - bu aksentlarni joylashtirib chiqish. Aksent deganda Jamoat binolaringizga badiiy va landshaft nuqtai nazaridan ko‘rkam urg‘u berish tushuniladi. Uni, albatta, ko‘zga tashlanadigan joyga o‘rnatish lozim. Urg‘u vazifasini chiroyli haykal, qandaydir noyob o‘simlik, yirik bir tikroq tabiiy tosh yoki boshqa shular kabi bog‘ingizga samara beruvchi va ko‘zga tashlanuvchi detallar o‘ynashi mumkin. Bunday aksentlar gullar yoki landshaft dizayni do‘konlarida sotilishi ham mumkin. Ularning Jamoat binolaringiz rejasidagi o‘rnini konstruktor detallarining applikatsiyasi yordamida belgilab chiqishingiz zarur (13-rasm).

To‘qqizinchi amal - Jamoat binolari bog‘i loyihasini optimal holatga keltirishdir.Umuman olganda Jamoat binolaringiz boglning landshaft loyihasi tayyor boldi. Biroq, har bir natijani tekshirib ko‘rmoq zarur. Ya'ni agar sizda loyihaning boshqacha variantlari ham bo‘lsa, ularni o‘zaro taqqoslab ko‘ring va eng optimal loyiha variantini tanlang. Tanlash mezoni bu sizdan eng kam parvarish va vaqt talab qiladigan variantdir. Ayni paytda u sizning didingiz va xobbingizga ham mos kelishi kerak. Masalan, siz bog‘ni parvarish qilishni yoqtirasiz yoki bunga hecham vaqtingiz va tobingiz yo‘q. Shunga qarab variantlaming birini tanlang. Optimallashtirishga parvarish» qiyin va murakkab bo‘lgan bog‘ elementlarini bajarilishi osonroq va oddiyroq elementlarga almashtirish ham kirishni unutmang.



**10-rasm.** Gulzorlarning joylanishini aniqlash



**11-rasm.** Vertikal ko‘kalamzorlar joylanishini aniqlash





**12-rasm.** Yoritish vositalarining joylanishini aniqlash

**13-rasm.** Aksentlarning o‘rnini aniqlash

Jamoat binolaringizga ekiladigan daraxt va butalarni tanlashda qanday va qancha buta yoki daraxtni, ularni qayerlarga va qanday landshaft kompozitsiyasida ekishni oldindan aniqlab oling. Bu ishni bajarishda sizga landshaft arxitektori yoki dizayneri va umuman, bog‘bon mutaxassislar yordam berishi mumkin.

Jamoat binolaringizning dam olish zonasida asosan manzarali daraxt va butalar, lianlar, xo‘jalik zonasida esa mevali va manzarali daraxtlar ekilishi maqsadga muvofiqdir.

Uy va yashash Jamoat binolarisi zonasi, ayvon, peshayvon, umumiy Jamoat binolarining old qismi, uyga kiraverish joyi va uydan so‘nggi Jamoat binolari ichkarisiga chiqishdagi joylar gullar va manzarali daraxtlar bilan bezatilishi maqsadga muvofiqdir. Qalin soya beruvchi baland daraxt va butalarni uyga yaqin masbfaga ekmaslik kerak, chun-ki yashash xonalari kun bo‘yi soyada qolib, uy devorlari namligi (zax) oshishi mumkin.

Gullarni tanlashda ularning ochilish mavsumiga e'tibor berish lozim. Umuman, gullarni shunday ekish kerakki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlasin. Xalqimiz gullarni tanlab ekishda qadimdan an'anaga aylanib qolgan mahalliy va zamonaviy gullardan foydalanadi. Shunday gullardan ayrimlarini sanab o‘tamiz: rayhon, atirgul, binafsha, namozshomgul, nargiz, gulira'no, nilufar, shabbo‘y, gultojixo‘roz.

Manzarali daraxtlar orasida qishinyozin ko‘m-ko‘k bolib o‘suvchi archasi-mon ninabargli daraxtlar ham bo‘lishi mumkin. Shunday qilinganda uy atrofidagi kirib-chiqish joylarining saranjom-sarishta, tartibli va manzarali bo‘lishi ta'minlanadi. Ninabargli daraxtlar va gullar o‘zlaridan xushbo‘y hidlar chiqarib, havoni toza va sog‘lom qiladi, uy-joy va Jamoat binolari ko‘rinishiga o‘ziga xos go‘zallik baxsh etadi.

O‘zbekistonda ko‘p bolali oilalar yashashini e'tiborga olgan holda, Jamoat binolari ichida uyga yaqin joydan bolalar uchun maxsus maydoncha ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday joy bolalarning yoz kunlari kunduz, ayniqsa, kechqurunlari Jamoat binolarida ochiq havoda yayrab o‘ynashlari uchun qulaylik tug‘diradi. Bolalar maydonchasining usti yengil konstruksiya bilan yopilishi, yonlari esa ochiq bolishi mumkin. Maydoncha janubiy-g‘arbiy va g‘arb tomondan soya beruvchi manzarali daraxtlar va butalar, qolgan tomonlardan esa yashil to‘siqlar bilan to‘silishi lozim.

Ayrim Jamoat binolarilarda uy atrofidagi kirib-chiqish joylariga mevali daraxtlar zich ekilganligini ko‘ramiz. Bunday hollarda yoz pishiqchiligida daraxtlar osti tagiga tushgan mevalar bilan to‘lib bosilishi, ifloslanishi, har xil qurt-qumursqalar va besaranjomlik kuzatilishi mumkin. Bunday joyda yoz paytlari ochiq havoda chorpoyada o‘tirib hordiq chiqarish ancha noqulay, qishda esa manzaradan ancha boy berilishi mumkin. Bundan tashqari mevali daraxtlar bolalar ko‘ziga yaqin bo‘lmaganligi ma'qul. Shuning uchun ham mevali daraxtlar zonasining katta qismi Jamoat binolarining to‘rida, poliz ekinlari bilan yashash Jamoat binolarisi oralig‘ida yoki ularga tutashib joylashganligi maqsadga muvofiqdir.

# 6.2.Sihatgoh (Sanatoriya) landshaft loyixalash

**1-Mavzu. Mavzular bo‘yicha ma’lumot berish. Istiroxat bog‘i va me’morial parklar.**

**Reja:**

1. **Fanga kirish. Landshaft loyihalashning maqsadi, vazifalari va muammolari.**
2. **Landshaft haqida tushuncha. Tabiiy va antropogen landshaftlar.**
3. **Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon, suv, texnogen, sanoat va turar joy, urbanitsiyalashgan landshaftlar**

Aholining ko‘payishi va inson faoliyatining har tomonlama rivojlanishi yashash muxitning doimiy ravishda o‘zgarib turishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Va yashash muhitini yaxshilashning landshaft arxitektura vositalari bilan yaxshilashning asosiy tajribalari bevosita insonning atrofigagina taolluqli bo‘lmay, balki barcha xududlarga, shaharning maxalliy xududidan boshlab mamlakat va sayera miqyosigacha taalluqlidir.

Bundan, landshaft arxitekturasining asosiy maksadi atrof muxitning ekologik, estetik va funktsional sifatlarini uyg‘unlashtirish hisoblanadi.

Biroq xar qanday o‘zgarishlar tasodifan va birdan yuz bermaydi – bu evolyutsion jarayondur. Jamiyat rivojining mazkur bosqichida landshaft arxitekturaning asosiy vazifasi urbanizatsiyalashgan muhitni rejalash va «yashil arxitektura» dizayni hamda

hududni obodonlashtirish elementlari vositasida uyg‘unlashtirishdir. Mazkur maqsad jamiyatning hayot faoliyatining moddiy fazoviy muxitini shakllantiruvchi shahar qurilishi maqsadlari bilan yaqin bog‘langandir. SHuning uchun landshaft arxitektura va shahar qurilishi maqsadlari bir-biriga chirmashib ketgan va hududni o‘zlashtirishning taknsonomik darajalariga muvofiq tabakalashtiriladi (bo‘laklarga ajratiladi), ular quyida ko‘rib chiqiladi.

Landshaft arxitekturasining asosiy vazifalari quyidagilardir :

1 – muhofaza qilish;

2 – o‘zgartirish yoki qayta yaratish (qayta qurish);

3 – yangi landshaftlarni yaratish.

**Muhofaza qilinuvchi (qo‘riqlanuvchi) landshaftlar** davlat tomonidan qo‘riqlanadiganlar ruyxatiga kiritilgan tabiiy landshaftlar turlari xisoblanadi. Bular – qo‘riqxonalar, buyurtmaxonalar, tabiiy va milliy parklar, hamda tabiat xaykallari xisoblanadi. Uzbekistonda tabiiy landshaftlardan 20 birlikdan ortiqrogi qo‘riqlanadi, ular orasida eng yiriklari quyidagilar: CHotkol, Xisar, Zomin, Kitob qo‘riqxonalari, Ugam-CHatqol milliy parki (3-rasm) va boshkalardir. Madaniy landshaftlar ham qo‘riqlanadi, masalan, Toshkentdagi «O‘zbekiston milliy bog‘», Xorazm viloyatidagi qo‘riqxona shahar Xeva va boshqa ob’ektlar.

**O‘zgartirilgan (shakli almashtirilgan) landshaftlar** deb inson (jamiyat)ning faoliyati natijasida o‘zgartirilgan tabiiy yoki ikkilamchi landshaftlar (ularni yana madaniy landshaftlar deb ham ataladi) xisoblanadi. Masalan, bu – qishlok xo‘jalik va shahar landshaftlari, dam olish zonalari yoki bazalari, parklar va boshqalar bo‘lib, ular tabiiy landshaftni o‘zgartirib, landshaftning yangi shakli bo‘lib qolishadi.

Umuman olganda, landshaftni o‘zgartirish jarayoni cheksizdir. Har bir avlod ma’lum darajada atrof muhitni o‘zgartiradi, keyingi avlod esa avvalgisi qilganlarini o‘zgartiradi.

Sanatoriya rivojlanishi kelajagi shaharning umumiy ko‘kalamzor hududlari tizimisiz to‘g‘ri baholanishi mumkin emas. Avvalo, ko‘kalamzor hududlar tizimi tarkibining murakkablashuv jarayonini aytib o‘tish kerak. Bunga sabab uning yangi elementlarining paydo bo‘lishi, shahar va aglomeratsiyalarning hududiy rivojlanishidir. Ko‘kalamzor tizimlarning rivojlanishi turli xil shaharlarda turli yo‘llar bo‘yicha ketadi.

Tarkib topgan shaharsozlik va tabiiy sharoitlar kompleksiga ko‘ra, ko‘kalamzorlarni fazoviy tashkil etish turli xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Unda qurilmalar massivida bir tekisda joylashgan alohida yashil “dog‘lar”, bir necha yirik o‘rmon park pannolari shahar markazigacha yetishi mumkin, suv-park diametri (shaharni daryo, kanal yoki suv ombori bo‘yicha kesib o‘tadigan parklar va qirg‘oqlar lentasi), qurilmalarga parallel yoki yondashib joylashgan ko‘kalamzorlarning keng yo‘llari (shahar chiziqli rivojlanganda), ko‘kalamzorlarning chiziqli-yo‘lak joylashuvi, shaharning ajralgan tumanlarini o‘rab turuvchi ko‘kalamzorlarning tashki massivlari.

SHaharlar ko‘kalamzorlar tizimini qurish shaharsozlik omillari (shaharning kattaligi va profili, uning ahamiyati, tarixiy rivojlanishi) va tabiiy sharoitlar, iqlim, tuproqlar, mavjud o‘simliklar, relьef xarakteri, suv havzalari bilan belgilanadi. SHaharning kattaligi ko‘kalamzor tizimlar ob’ektlar tarkibiga, ularning o‘lchamlariga, funktsional-landshaft tashkil etishiga ta’sir etadi. Aholi joylari hududi
joylashuviga qarab, ko‘kalamzorlar beshta kategoriyaga bo‘linadilar:

**1-A – tabiatni qo‘riqlash vazifasini bajaruvchi ko‘kalamzorlar**-bunga qo‘riqxonalar, tabiat yodgorliklari, suv manbalarini sanitarqo‘riqlash qismlari, daryo va kanallarni qo‘riqlash yo‘laklari.

**2-B – madaniy meros ko‘kamlazorlariga** tarixiy bog‘lar, dendrologik,botanika va zoologiya bog‘ va parklar; memorial qabristonlar.

**3-V – umumiy foydalanish ko‘kalamzorlari** shahar va tuman parklari,skverlar, maydonlardagi skverlar, piyoda ko‘chalar, qirg‘oq bo‘ylari,shahar tashqarisidagi dam olish joylari.

**4-G – cheklangan foydalanish ko‘kalamzorlari** turar joy tumani va kichik tuman bog‘lari, individual qurilmalardagi ko‘kalamzorlar, bolalar bog‘chalari, maktablar, ma’muriy va boshqa binolar, oliy o‘quv yurtlari va sport kompleksi ko‘kalamzorlari.

**5-D – maxsus vazifali ko‘kalamzorlar** avtomobilь yo‘llari, ko‘chalar bo‘lib, sanoat korxonalari va ularning sanitar-himoya qismlari, pitomniklar, oranjereya, qabristonlar, shosse va temir yo‘l ko‘kalamzorlari.

O‘zbekiston aholi joylari ko‘kalamzorlar tizimini yanada takomillashtirish uchun me’yoriy asos lozim, u shahar va poselkalar hududida ko‘kalamzorlar tizim elemenlarining son jihatidan nisbatini nazarda tutadi. Toshkent Zonal ilmiy tadqiqot va eksperimental loyihalash institutida (TashZNIEP) o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida O‘zbekiston axoli joylari ko‘kalamzorlarini me’yorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, ular real loyihalash va shaharsozlik amaliyotiga asos qilib olinishi mumkin.

## 2-Mavzu.Mavzuni belgilash, me’yoriy xujjatlar asosida belgilangan mavzu bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash.

**Reja:**

**1. Landshaft to‘g‘risida tushunchalar**
**2. Bog‘dorchilik va park san’ati**
**3. Landshaft arxitekturasi san’ati**

SHahar markazlarining magistrallari Geografik tushunchada landshaft bu tabiiy chegaralar bilan uralgan bir jinsli quruklik maydonni bulib, bu chegaralarda landshaftning tabiiy elementlari uzaro boglik va uzaro alokada bulgan yagonalikni tashkil etadi. Bir jinsli xududlar - tayga, tropiq urmonlar, tundrada - landshaftlarida mayda tabiiy birliklar - geografik landshaftning tarkibiy kismlari mavjud. Zamonaviy landshaft arxitekturasida tabiiy va antropogen landshaft tushunchasi ajratiladi .

Ammo yer yuzida inson tegmagan tabiiy landshaftlar juda kam. Xujalik faoliyati jaraenida ayrim tabiiy komponentlarni birinchi navbatda usimliklarni, tuprokni, suvni, xayvonat dunesini uzgartiradi. Bunday uzgartirishlar landshaftda karor topgan alokalar va tabiiy komponentlar uzaro tahsirlarni buzadi.

Xududlarni uzlashtirish zarurligi va insonning tabiat ichiga singib borishi landshaftning uzgarishiga sabab buladi, yullar tarmovlari va elektr uzatish liniyalari,

zavodlar, poselkalar vujudga keladi. Yahni insonning aralashuvi bilan landshaft antropogen - inson uzgartirgan landshaftga aylanadi.
yaqinidagi hududlarni piyodalar uchun ajratilgan ochiq maydonlar orasidagi ko‘k himoya mintaqalarini ko‘zda tutish zarur. Magistralni landshaft tashkil etish uning eniga va transportning harakatlanish jadalligiga bog‘liq. Markazdagi magistral yaqinidagi hududlardan foydalanish tavsifiga ularni ko‘kalamzorlashtirish maqsadlari va uslublari bog‘liq bo‘ladi.

Issiq iqlimli tumanlarda mikro - muhitli va sanitariya – gigienik rejimni optimallashtirish uchun ko‘kalamzorlashtirishni va landshaft elementlarini rejali va fazoviy tashkil etish tamoyillariga amal qilish zarur. Bunda magistralni mo‘ljallashni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.Magistralni meridional orientatsiyalashda – qurilishdan janub tomondan, soyada qoladigan, maydonlarning ochiq qoladiganlarga qaraganda nisbati kamida 60:40% ni tashkil etishi kerak; kenglikni orientatsiyalashda – 70:30% nisbatda bo‘lishi maqsadga muvofiq; aralash, diagonal orientatsiyada – 50:50% nisbatda bo‘lish kerak.

Yo‘llarning keng ochiq fazolarida magistralning bosh o‘qida bulьvarlar ko‘zda tutilishi kerak, u yerda hududning ayrim uchastkalaridan foydalanish tavsifiga ko‘ra funktsional zonalashni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Printsipial va loyiha modellarida janubiy va g‘arbiy orientatsiyada soyalanishni talab qiluvchi zonalar aks ettirilgan. Bunda ochiq va soyalanuvchi maydonlarning umumiy nisbati kun mobaynida hududlardan jadal foydalanishda insolirlangan va soyalashtirilgan fazolarning 50x50% nisbati kattaligiga mos bo‘lishi kerak.

Loyiha modellari shuningdek yuqorida aytib o‘tilgan 50x50% fazoviy nisbatlarni va yuqori o‘simliklar landshaftining boshqa elementlariga va ochiq fazolariga nisbatan rejali joylashtirishni aks ettiradi.

XIX asr urtalarida landshaft arxitekturasi rivojlanishida keskin burilish yasadi. Birinchi marta insonning atrof-muxit bilan munosabatlarini tartibga solish masalasi kuyildi. Landshaft arxitekturasi rivojlanishi avvalo Frederik Olmsted nomi bilan boglik.

Maxsus bilimga ega bulmay turib, u 1858 yili Nьyu-York Markaziy parki konkurs loyixasini yutib chikdi, u uzini “landshaft arxitektori” deb atadi. Markaziy park loyixasi urbanizatsiyalashgan tuman markazida tegilmagan tabiat bulagini saklab kolish g‘oyasini amalga oshirdi (4- rasmlar jadvali, 35 bet). Uning peyzaj tarxi “ingliz” bogidan tamomila fark kiladigan xarakterda edi. Ingliz bogining tamoyili romantik peyzajni sunhiy shakllantirish bulsa, Olmsted g‘oyasi tabiiy peyzajni saklab kolish va uni kulay kurinish nuktalaridan tomosha kilishni tashkil etishdan iboratdir.
Bu g‘oya AKSHning Kaliforniya shtatidagi Yosemit vodiysida birinchi tabiiy kurikxona tashkiletishga asos buldi (1-rasm). Uning xududida eng jozibali, kulay kurinish nuktalarini kursatishni tahminlash va tashrif buyuruvchilarning dam olishini tashkil etish buyicha kator tadbirlar utkazildi.

G‘oya 1864 yilda tugildi, ammo oradan 50 yil utdi. 1916 yilda A^SH milliy parklar xizmati tuzilmaguncha. Ularni loyixalash landshaft arxitektorlari faoliyatining yangi soxasiga aylandi.

XIX asrning ikkinchi yarmi nafakat tabiiy landshaftlar kimmatini tushunish bilan, balki shaxarlarda bog va parklar kurilishining anchagina kengayganligi bilan xarakterlanadi. Yangi parklar uzining kurinishi, stilistikasi, vazifasi buyicha xar xil edi. Boglarni “frantsuz”, “ingliz”, “italg‘yan” boglariga bulish yukoldi. G yeometrik shakl va

tugri chiziklar suv xavzalari va yulkalar egri chiziklari bilan uygunlashgan rejalar parklar kurilishida yetakchilik kildi.

1898 yildayok E.Xovard uzining mashxur “SHaxarning kelajak bogi” kitobini nashr ettirdi, unda tabiatning shaxar muxitiga keng doirada kirib borishi g‘oyasini ilgari surdi. Xovard nazariyasi buyicha yirik shaxarlar kishlok xujalik yerlari yashil belbogi bilan uralgan bulishi lozim. Undan keyin yashil belbokka bog shaxarlar xalkasi tutashishi, ular uzaro va markaz shaxar bilan temir yul tizimi orkali boglanishi kerak .

SHundan sung, mutaxassislarni maksadga muvofik tayyorlash extiyoji tugildi va 1901 yil AKSH Xarvard universitetida landshaft arxitektorlarining birinchi maktabi ochildi. AKSH yangi kasbni uzlashtirishda yetakchi uringa chikdi. Landshaft arxitekturasi uz faoliyati doirasini tezlik bilan kengaytira borib, yanada kengrok ochiklikni uzlashtira bordi, ularning muxitini tashkil etishda turli yechim bilan shugullandi.

Xovard nazariyasi kup tarafdorlarga ega buldi va 1903 yilda Angliyada “Birinchi shaxar-boglar kompaniyasi” paydo buldi. U, London atrofida Lechvort shaxrini qurishni boshladi. Ishlar juda samarli bordi, 1914 y. kelib Angliya axolisining soni 9 ming kishiga yetdi. Lekin shaxar boglarining keng rivojlanmadi. Xususiy yer egalari va usha davrning kapitalizm sharoitlarida kurilishlarning borishiga ishonch kamrok va kiyin edi. Griffin loyixasi asosida 1920 yilda kurilishi boshlangan shaxar-bog g‘oyasi Avstraliyaning poytaxti Kanberra shaxri rejasida uzining tula ifodasini topdi. Ikkinchi jaxon urushi oxirigacha landshaft arxitekturasi asosan anhanaviy bog-park sanhati doirasida amal kildi. Ikkinchi jaxon urushidan sung landshaft arxitekturasi rivojida yangi muxim boskich boshlandi. U insonning tabiiy muxitga tahsirining keskin usishi xavfi bilan boglik - tropik urmonlarning yuk bulib ketishi, kumli chullarning bostirib kirishi, jaxon okeanining ifloslanishi va boshkalar. Ayniksa, tabiiy muxitning degradatsiyasigiga ulkan shaxarlarda keskin yuzaga keladi. Bu sharoitlarda landshaft arxitektorlarining roli turli xil landshaft muxitlarini shakllantirish va uzgartirishda yanada kengrok katnashuvida ifodalanadi.

1948 yili Angliyaning Kembridj shaxrida 9 mamlakat vakillari Xalkaro landshaft arxitektori federatsiyasiga - IFLAga asos soldilar. Bu kasb tan olindi va BMT koshidagi Xalkaro mexnat tashkiloti rasman kasblar ruyxatiga kiritilgan. Xozir IFLA faoliyatida barcha kontinentlardan 50 dan ortik mamlakat vakillari ishtirok etmokda, ularning kupchiligida landshaft arxitektori tayyorlanadi. Xar yili IFLA kongresslari utkaziladi, ularning xar biri dolzarb zamonaviy muammolardan biriga bagishlanadi. Xozirgi zamon landshaft arxitekturasida 4 yunalish mavjud.

“Landshaft rejalashtirish” juda katta axamiyatga ega, u turli xildagi landshaft muxitlari bilan tegilmagan kurikxonalar tabiatdan inson tomonidan intensiv ekspluatatsiya kilinayotgan tabiiy tumanlarga uzviy boglikdir. Landshaft rejalashtirish shugullanadigan masalalar doirasiga yana kuyidagilar kiradi: buzilgan landshaftlarni tiklash, yul va yul inshootlarini trassalash va loyixalash, sanoat va kishlok xujalik xududlarini, dam olish, turizm va boshkalar landshaftini tashkil etish. Keyingi yillarda xududiy landshaftni rejalashtirishga kizikish ancha usdi. Masalan, landshaft-rekreatsion rivojlanishini tumanni landshaft tizilmalariga bulishdan boshlanadi.

Landshaft arxitektrasining ikkinchi yirik yunalishi bulib shaxarlar va urbanizatsiyalashgan tumanlarning landshaft tarkibini shakllantirish oldinga chikdi. Bu yunalish anachagina xususiy muammolarni keltirib chikardi. Ularda shaxarlarning effektiv kukalamzor tizimini yaratish markaziy muammodir. Xovardning ishlari bu

soxada tadkikiotlar utkazishni boshlab berdi. Bu yerda Sovet Ittifoki yetakchi (pioner) bulib chikdi. Moskvaning 1920, 1935, 1975 yillardagi bosh tarxlarida takliflar shaxarni kukalamzorlashtirishga tizimli yondashib, printsipial axamiyatga ega buldilar. Xattoki dunyoning yirik shaxarlaridagi - CHandigarx va Braziliya shaxarlarida loyixalangan kukalamzor tizimlarini xayotda amalga oshirishning iloji bulmadi. Sovet Ittifokida esa unlab shaxarlarni kukalamzorlashtirish tizimini amalga oshirishga muvaffik bulindi. Ularning orasida Leningrad, Kiev, Minsq Yerevan shaxarlari uzlarinig mehmoriy jixatlari bilan ajralib turadilar.

Landshaft arxitekturasining uchinchi eng keng yunalishi deb turli vazifali aloxida xududlarni loyixalashni xisoblash mumkin. Avalambor bu bog va parklarni loyixalash. Bog va parklar uzining funktsional vazifasiga karab farklanadi (botanika, zoologiya, bolalar, sport, tematik va x.k.). Ular texnik xususiyatlarga kura, masalan: tuprokda, tomda, yopik makonda, sunhiy xom-ashyolardan kurilganiga kura xam ajratiladi. Zamonaviy bog va parklarning barcha xillarini sanab utish kiyin. Boglarni loyixalash bilan aloxida imoratlarning landshaft atrofini va mehmoriy komplekslarining landshaft tarkibi ustida ishlash xam uzviy boglikdir. Garb mamlakatlarida landshaft arxitektori barcha axamiyatli obhektlar guruxining asosiy ahzosi va muallifi bulib xisoblanadi.
Landshaft dizayni - bu landshaft arxitekturasining eng ommabop zamonaviy yunalishlaridan biridir. Kichik xududlar, burchaklar va boshka lokal xududlar ularni bezatishga sunhiy landshaft dizaynerlik yondoshuvini talab kiladi.

SHunday kilib, xozirgi kunda landshaft arxitekturasi butun dunyoda uzining rivojida yangi darajalarda turibdi. U muxim mustaqil mehmoriy kasb sifatida tan olindi va unga inson xayotining ochik muxitini takomillashtirish kabi katta ishlarni kilish va muammolarni yechish talab etiladi.

## Landshaft arxitekturasining maqsadi va vazifalari.

Axolining kupayishi va inson faoliyatining xar tomonlama rivojlanishi yashash muxitning doimiy ravishda uzgarib turishi bilan uzaro boglikdir. Va yashash muxitini yaxshilashning landshaft arxitektura vositalari bilan yaxshilashning asosiy tajribalari bevosita insonning atrofigagina taollukli bulmay, balki barcha xududlarga, shaxarning maxalliy xududidan boshlab mamlakat va saera mikyosigacha taalluklidir. Bundan, landshaft arxitekturasining asosiy maksadi atrof muxitning ekologiq estetik va funktsional sifatlarini uygunlashtirish xisoblanadi.

Birok xar kanday uzgarishlar tasodifan va birdan yuz bermaydi - bu evolyutsion jarayondur. Jamiyat rivojining mazkur boskichida landshaft arxitekturaning asosiy vazifasi urbanizatsiyalashgan muxitni rejalash va «yashil arxitektura» dizayni xamda xududni obodonlashtirish elementlari vositasida uygunlashtirishdir. Mazkur maksad jamiyatning xayot faoliyatining moddiy fazoviy muxitini shakllantiruvchi shaxar kurilishi maksadlari bilan yakin boglangandir. SHuning uchun landshaft arxitektura va shaxar kurilishi maksadlari bir-biriga chirmashib ketgan va xududni uzlashtirishning taknsonomik darajalariga muvofik tabakalashtiriladi (bulaklarga ajratiladi), ular kuyida kurib chikiladi.

## 3-Mavzu. Sanatoriya loyihalashda landshaftga e'tibor berish va undagi omillar.

Reja

1. Zamonaviy shaharlar markazlari hududini landshaft tashkil etish.
2. Rekreatsiya.

Zamonaviy shaharlar markazlari hududini bog‘lar, parklar,maydonlar,skverlar, piyodalar ko‘chalari, hiyobonlar, bulьvarlar,qirg‘oq bo‘ylari, qurilmalarning fon muhitini yagona bog‘-park sistemasiga birlashtiruvchi o‘zaro bog‘liq piyodalar hududi sistemasi tashkil etadi.





Markazlarning landshaft tashkil etilishiga qo‘yiladigan muhim talablar loyihalashning ma’lum bosqichlariga va uslublariga rioya qilish hisoblanadi. Markazdagi ochiq maydonlarni funktsional zonalash landshaftni loyihalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Har bir funktsional zona foydalanishning va mos ravishda landshaft tashkil etilishiga talab qo‘yuvchi hududni tashkil etishi o‘ziga xos texnologiyasiga ega. SHuning uchun markazning piyodalar fazolarining landshaft tashkil etilishida quyidagi zonalarni ajratish maqsadga muvofiq: tranzit harakat; rekreatsiya va bo‘sh vaqt; ovqatlanish; ommaviy tadbirlar (bayramlar, shou, kontsertlar, diskotekalar).

Tranzit zona faqat harakat davrida hududda qisqa vaqt davomida bo‘lishiga mo‘ljallangan. Tranzit harakatga mo‘ljallangan shakllar bu to‘g‘ri shakldagi hiyobon va yo‘laklar hisoblanadi. Hududda ularning rejali joylashtirilishining samaradorligidan o‘tish uchun sarflanadigan vaqtning davomiyligi bog‘liq bo‘ladi. Mazkur holda diagonal tarmoqlanishi elementlari bilan ortoganal rejalash eng maqsadga muvofiqdir. Tranzit harakat zonasi gulpushta va boshqa qurilmalar bilan bo‘linmasligi kerak.

Rekreatsiya va bo‘sh vaqtni o‘tkazish zonalari markazga tortishning ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dam olish va bo‘sh vaqtni o‘tkazish zonalarini har tomonlama o‘ylab tashkil etish aholi guruhlari orasida muloqot qilish va axborot almashishi uchun sharoitlar yaratadi, jamiyat fuqarolarini jipslashtiradi.

**Rekreatsiya** va bo‘sh vaqtni o‘tkazish zonalarini tashkil etish uchun eng qulay tabiiy sharoitga ega hududlar – daryo yoki sun’iy yaratilgan havzalarning bo‘ylari, ko‘kalamzorlar, bog‘lar, parklar hududi, maydonlar, hiyobonlar, bulьvarlar, piyodalar yuradigan ko‘chalar va boshqalar ajratiladi.

Bu hududlarni landshaftli tashkil etish rekratsion faoliyatni tashkil etish o‘lchamlari va tavsifiga bog‘liq. Bog‘larda, parklarda, hiyobonlarda,bulьvarlarda landshaft bog‘-park

hududlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq shakllanadi. Ammo maydonlar, piyodalarning ko‘chalari va daryo yoki havza bo‘ylari hududlarida rekreatsion bo‘sh vaqtni o‘tkazish zonalar hududining shaxsiy xususiyatlariga muvofiq ajratiladi, ma’lum cheklanishlarga yo‘l qo‘yilmaydi va loyiha mualliflarining ijodiy fikriga bog‘liq bo‘ladi. Rekreatsion uchastkalar boshqalaridan zich yashil o‘simliklar bilan ajratilishi mumkin.

## 4-5-6-Mavzu. Tanlangan mavzu bo‘yicha eskizlar bajarish.

**Reja:**

1. **Landshaft tashkil etish usullari.**
2. **Gulpushtalar va maysazorlar markaziy maydonlarning landshafti**

Turli hil holatlar uchun hiyobonlarni rejali tashkil etish va ularni ko‘kalamzorlashtirishga doir misollar ko‘rsatilgan. Hiyobon qanchalik keng va uzun bo‘lsa, uning chetlariga shunchalik shakli keng va tez o‘suvchi jins qo‘llaniladi. Qalin daraxtlar tez birikadi va soya qilib beruvchi to‘siq hosil qilib, piyodani issiq yoz kuni sharoitida himoya qiladi.

**Landshaft tashkil etish usullari:** Bir xil yoki turli xil jinsli tarkibdan ochiq ritmik uzilishli ko‘chatlarni yarim berk turdagi landshaftni shakllantirishda foydalanish mumkin. Mazkur usullar daraxtlarning yaxshiroq o‘sishi uchun, hududni shamollatish uchun, landshaftli - fazoviy kompozitsiyaning plastikligida aks etuvchi yorug‘lik va soyalarning samarali qo‘shilishi uchun imkon yaratadi. Agar hududlar asosan kechki payt foydalaniladigan bo‘lsa, u holda hiyobon bo‘yicha harakat tez yoki sekin bo‘lishiga (sayr qilayotganda) bog‘liq bo‘lmagan holda landshaftni ochiq shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur holda o‘simliklarni rejali joylashtirish tavsifini me’moriy – landshaftli kompozitsiyaning yo‘nalishiga bog‘liq holda cho‘ntaklar – kurdonerlar, chiziqlar yoki boshqa usullarni qo‘llanib har xillashtirish mumkin.

Hiyobonlar orasiga markazlarning ochiq fazolarining salobatini ta’kidlovchi o‘tloqlar, gulpushtalar, favvoralar, kichik me’moriy yoki badiiy shakllar joylashtirilishi mumkin. Ammo bu yerda salobatlilik yagona maqsad bo‘lmasligi kerakligini ta’kidlash zarur. Markaz hududlar aholisining shahar muhitida dam olishi va bo‘sh vaqtini o‘tkazishni turli xil shakllantirishga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojlariga xizmat ko‘rsatish uchun foydalanilishi kerak.

Manzarali hiyobon va yo‘laklar piyodalar maydonlarini bog‘-park majmuasi va sohilbo‘yi hududlari bilan bog‘lashi mumkin.

*Gulpushtalar va maysazorlar* markaziy maydonlarning landshaft dizaynining eng ko‘p tarqalgan elementlaridan biridir. Gulpushtalar va maysazorlarning landshaft ompozitsiyalarida muntazam geometrik yoki erkin shakllardan foydalaniladi. Odatda bitta, ikkita navli gul ekinlari ekilgan oddiy konfiguratsiyadagi yirik parterli gulxonalar juda kuchli taassurot qoldirishi ma’lum. Biroq oddiy ijod va dekorativ bezakning ddiyligi soddalashtirish bilan chegaralanmasligi kerak. Yirik maydonlar detallarining kattaligi va

Landshaftli kompozitsiyalarda gulli ekinlarni qo‘llanishning asosiy turlari – bu gullab turgan maysazorlar, gul gilamlari, maysazor ko‘rinishida rangli dog‘lar ko‘rinishidagi yoki ochiq suv havzalari atrofiga o‘tkazilgan gullar ko‘rinishida joylashtiriladigan nomuntazam shakldagi yakka ekilgan va bir xil yoki aralash guruhdagi

ekindir. Kompozitsiya monoton boʻlmasligi uchun uning asosiy qismi qolgan qismlarga nisbatan kuchliroq ifodalangan boʻlishi kerak. Kompozitsiyaning bosh qismlarini ajratib koʻrsatish ularning detallarini yiriklashtirish va yorqin boʻyoqli baland boʻyli oʻsimliklarni qoʻllanish yoʻli bilan erishilishi mumkin (8-rasmlar jadvali. Bitta bosh, markaziy klumbali va bir necha ikkinchi darajali klumbalari boʻlgan simmetrik kompozitsiyada bosh klumba qolganlariga nisbatan ancha kattaroq oʻlchamli qilib loyihalanadi va uni
ancha murakkab ornament va ranglarini yorqinroq qilib ajratib koʻrsatiladi.

Agar kompozitsiya oʻlchamlari boʻyicha uncha katta boʻlmasa va uni butunicha idrok qilishga moʻljallangan boʻlmagandagina ikkinchi darajali klumbalar mutlaqo bir xil boʻlishi mumkin.

Detallari izchil idrok qilinadigan keng kompozitsiyalarda (masalan, sayr qilish vaqtida) shakli va kattaligi boʻyicha bir xil elementlar (klumbalar, rabatkalar) detallarning-rasmi yoki rangiga koʻra farq qilinishi kerak. Hiyobon va yoʻlakchalarning ayrim qismlarida rabatkalarni gullar bilan bezatishda bezatish tavsifi va detallarning rangi ham xilma- xil boʻlishi, ammo bunda bezatishning bir turidan boshqasiga oʻtish ketma-ketligini hisobga olish lozim.









Yuzalar (klumbalar, rabatkalar va hokazolar) ayrim elementlarni bo‘lishda “oltin kesim”ning bilib qo‘llanilishi yaxshi natija beradi. Kesmaning «oltin kesimi” 2:3; 3:5; 5:8; 8:13 va shu kabi atrofida bo‘lishi mumkin. SHundan kelib chiqib eni 5 m bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak gulpushtani bo‘lishda uning o‘rta qismining eni 2m chetlari 1,5m yoki o‘rta qismining eni 3m, chetlari 1m dan bo‘lishi mumkin. Oxirgi holda gulpushtaning chetki qismlariga past to‘siqsimon o‘simliklarni o‘tkazish, o‘rta qismiga esa – ancha baland bo‘yli o‘simliklarni ekish mumkin yoki maysa qoplamasini yaratish mumkin.

Gulpushtaning asosiy bo‘linishlarini o‘shanday nisbatdan kelib chiqib, yanada mayda qismlarga bo‘lish mumkin. Agar gulpushtaning markaziga kompozitsiyaning bosh elementi bo‘lmagan haykal (vaza, stotul, obelisk)

**7-8-Mavzu. Maqbul variant asosida klauzuralar bajarish, hamda tahlil qilish.**

**Reja:**

1. **Ommaviy tadbirlar qismi.**
2. **Bolalar dam olish qismi.**
3. **Bolalar dam olish qismi.**

Zamonaviy shahardagi park o‘ziga – shahar muhitini sog‘lomlashtirish funktsiyasini oluvchi, shahar landshaftini boyituvchi, tabiatni qo‘riqlash va aholining dam olishiga yordam beruvchi ko‘kalamzor makonlar tizimining eng muhim elementidir.

Ommaviy ko‘p funktsional park tipi hududning yetarlicha kattaligida shahar aholisining tabiiy dam olishini tashkil etish tizimida asosiy ob’ekt bo‘lib qoladi. Bunday parklar hududini qismlarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

ommaviy tadbirlar - 5-7%
bolalar dam olishi – 5-10 %
fizkulьtura sog‘lomlashtirish – 10-20 %
madaniy-oqartuv tadbirlari - 3-8 %
tinch dam olish – 50-75%
xo‘jalik – 1-5 %

**Ommaviy tadbirlar qismi** – parkning asosiy kirish qismi yaqinida joylashadi. Teatr, kino, o‘yin maydonchasi, attraktsionlar, festival maydoni, ommaviy o‘yinlar va boshqalar.

**Bolalar dam olish qismi** – alohida joylashtirish, parkka kirish joyi yaqinida, 1 dan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o‘yin maydonchalari, turli inshootlarni o‘z ichiga oladi.

**Fizkulьtura sog‘lomlashtirish inshootlari** – tekis relьefli, suv havzasi bor ochiq joylarda iloji boricha bitta majmuaga birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

**Madaniy oqartuv qismi** - park hududi bo‘yicha erkin joylashtiriladi, lektoriylar, kichik ko‘rgazma pavilьonlari va kafe, o‘quv zali, havaskorlik mashg‘ulotlari uchun xonalarni o‘z ichiga oladi.




**Ko‘p funktsional parklarni zonalashtirish misollari:**
*I* - ommaviy tadbirlar qismi, *II* - bolalar dam olish qismi, *III* - fizkulьtura sog‘lomlashtirish inshootlari, *IV*- madaniy oqartuv qismi, *V*- tinch dam olish qismi, *VI* - xo‘jalik qismi.

**Tinch dam olish qismi** – parkning katta qismini egallaydi va tabiiy peyzajlar bilan xarakterlidir. Bu yerda har qanday inshootlar qurish, kichik me’moriy shakllar-trelьyaj, bog‘ mebelidan tashqari man qilinadi.

**Xo‘jalik qismi** – parkning chekka qismida, tutash ko‘chaga o‘zining chiqish joyi bilan joylashadi. Asbob-uskunalar, park jihozlari, omborlari, yuklarni tushirish maydonchalarini o‘z ichiga oladi.

Parklar qoshida avtomobil to‘xtash joylari va keluvchilar uchun gigiena punktlarini ko‘zda tutish lozim.Ko‘p funktsiyali park tabiiy balansini saqlash uchun uning o‘lchamlari 20 ga dan kichik bo‘lmasligi kerak. Masalan, O‘zbekistonning eng kata parklardan biri Toshkentdagi –“O‘zbekiston milliy bog‘i”. Uning o‘lchami 70 ga dan katta, lekin Toshkentdagi boshqa va O‘zbekistonshaharlaridagi parklar esa 10-15 gektargacha yetadi.



**9-10-11-12-Mavzu. CHizmalarni planshetga joylashtirish.**

**Reja:**

1. **Park inshootlari to‘plangan qismi.**
2. **Ommaviy qatnov qismi.**
3. **Istirohat bog‘lar**.

Park hududlarining balansi “tabiiy” muhitlar komponentlari“sun’iylikdan” ustunligi ta’minlangan holda 10-jadvalda aks ettirilgan.

Hozirgi vaqtda parklarni funktsional qismlarga bo‘lishga an’anaviy yondoshuv bilan bir qatorda boshqa an’ana ham rivojlanmoqda. Funktsional qismlarga bo‘lish va hisob balansidan tashqari hududni landshaftning sun’iy inshootlar bilan to‘ldirganlik darajasi bo‘yicha differentsiallash va quyidagi yirik qismlarni ajratish lozim:

a) **park inshootlari to‘plangan qism** – rekreatsion bosim 100 odamga ga hisob qilingan, yuqori darajada obodonlashtirilgan. Inshootlar,hiyobon va maydonlar bu yerda 30% gacha maydonni egallaydi;




**Parkning funktsional-rejalashtirish kompozitsiyalari:**
*a)* - perimetral, *b)* - tugun-yaqinlashtirilgan, *v)* - o‘qli yeki anfiladli; *g)* - tugun-uzoqlashtirilgan;*d)* - kompakt.

b) **ommaviy qatnov qismi** yuqorida ko‘rsatilganga tutashgan –rekreatsion bosim 50-100 kishiga ga hisob qilingan, oddiy park darajasida obodonlashtirilgan. Bu yerda landshaftning sun’iy elementlari tabiiyga bo‘ysundirilgan;

c) **tabiiy qism** – shahar muhitidan ajratilgan, obodonlashtirishning minimal darajasiga ega, bu yerda har qanday inshootlar iloji boricha qurilmaydi, 50 kishiga kam rekreatsion bosimga mo‘ljallangan.

**Parkning kichik o‘lchamlarida** – 10-50 ga gacha maydonning chetiga joylashgan kompleks rekreatsion markazni tashkil etish eng ratsionaldir.

**Parkning o‘rta o‘lchamlarida** – 50-100 ga gacha uch-to‘rt maxsus markazlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ularga tegishli funktsional qismlar yondoshadi.

**Yirik parklarda** - 100-500 ga gacha bir nechta yirik kompleks markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir.Bu tavsiyalar taxminiydir va parkning ixcham tarxiga, uning bir xil atrofiga mo‘ljallangan. CHo‘ziq shaklli tarxda, hatto kichik parklarda xizmat ko‘rsatishni yagona tugunda to‘plash qiyin, bu yerda bir nechta tortilish fokuslari lozim bo‘ladi.

Parkning tarxiy tarkibi quyidagi beshta inshootlarni joylashtirish tuzilmalaridan biri bo‘yicha qurilgan funktsional-rejalashtirish kompozitsiyalari berilgan.

**Istirohat bog‘lari** tinch dam olish uchun mo‘ljallanadi. Unda qiziqarli landshaft manzaralari, ko‘p tarmoqli yo‘laklar tuzilmasi, chiroyli daraxt va butalar guruhlari mavjud bo‘lgan manzarali maydonlaridan ko‘rish nuqtalari va gulzorlar, maysazorlar loyihalanadi.Bunday bog‘lar qiziqarli dam olish joylarida ko‘p sonli skameykalar bilan jihozlanadi. Baland nuqtalarida besedkalar – **rotondalar** va keng ko‘lamli tomosha qilish

uchun ko‘rish maydonchalari – **belьvederlar** quriladi.Istirohat bog‘larida suv havzalari, ko‘prikchalar, hovuzlar va boshqa peyzaj parklariga xos landshaft elementlari loyihalanadi. Istirohat bog‘larida haykallar va kichik arxitekturaviy shakllar hammuhim ahamiyatga ega. Haykaltaroshlik asarlarida odatda lirik mavzular aks etadi: afsonalar, ertaklar qahramonlari yashil fonga mutanosiblikda joylashtirilishi kerak. Istirohat bog‘larida ko‘proq favvoralar, hovuzlar, gulzorlar kompozitsiyasi, daraxt va butalar guruhi qo‘llanilgan chim bilan uyg‘unlikda kaskadlar loyihalanadi. Parklarni kechki payt ham foydalanish imkoniyati bo‘lishi uchun yaxshi yoritilishi kerak. Ba’zan parkning original kompozitsion yechimini yorug‘lik va rang uyg‘unligini namoyish etgan holda yoritish uchun dekorativ yoritgichlar qo‘llaniladi.

**Tarixiy parklar.** O‘tgan asrda paydo bo‘lgan bunday parklar o‘zida tarixiy – landshaft va me’moriy majmualarning ajralmas qismi saroy- muzeylarni mujassam etgan (birinchi qismning 8-17 va 19-26-rasmlar jadvallarida berilgan). Bu parklar tashrif buyururuvchilarga me’moriy yodgorliklarni, muzeylarda joylashgan ekspozitsiyalar, san’at asarlarini tanishtiruvchi vazifasini bajaradi.

**Landshaft parklar.** Tabiiy muhitlar kamayib borayotgan zamonaviy shahar sharoitida park qurilishida landshaft parklari yo‘nalishi tobora keng tus olmoqda. Tabiiy parklardan farqli o‘laroq, bunday parklar noqulay sharoitlarda joylashgan shahar yerlari yetishmovchiligi mavjud bo‘lgan shahar ichi va tashqi hududlarda ham loyihalanishi mumkin.

Landshaft parki qurilishida yetakchi o‘rinni Yevropa davlatlari va Amerika egallaydi. Keyingi yillarda landshaft parklari buzilgan sanoat hududlari o‘rnida loyihalanishi mumkin (sanoat chiqindilari, kar’erlar, foydali qazilmalar qazib olingan joylar) Bu masalada yuqorida aytgandek Germaniyaning ko‘mir qazib olish markazi Disburg shahri tajribasi qiziqarli. Bu yerda sobiq ko‘mir qazib olish va qayta ishlash majmuasi hududida sobiq sanoat inshootlari (ulkan sanoat memorial-monumentlari sifatida qoldirilgan ekspressiv konstruktsiyalar) atrofida bir qancha turli parklar (istirohat, panorama, attraktsion, tematik va b.) joylashtirilgan.

SHuningdek, bu sohada Amerikaning Florida shtatidagi 1898 yilda yaratilgan Burchatov oilasi bog‘i ham juda qiziqarli.




**Memorial parklar** xalq uchun xotira bo‘lib qolgan buyuk tarixiy hodisalar sharafiga quriladi va o‘zining monumental, tantanali xarakteri bilan boshqa maxsus parklardan ajralib turadi. Bu yerda bog‘-park kompozitsiyasining barcha vositalari yodgorlikning g‘oyasi va mazmunini ochib berishga yo‘naltirilishi lozim. Bunday parklar tashqi qo‘rinishining yetakchi chizig‘i bo‘lib monumental vositalardan keng foydalanish, aniq o‘ylangan harakat grafigi, o‘simliklarni asosan muntazam joylashtirish xizmat kiladi. Barcha xizmat ko‘rsatish vositalarini markaziy hududdan tashqarida loyihalash lozim. Bu yerda memorialning tantanali tinchligini buzadigan kiosklar, ichimlik avtomatlari, transport aloqalari bo‘lmasligi kerak.



**Bolalar parklari.** Ularning asosiy vazifasi bolalarning faol dam olishini tashkil etish, jismoniy rivojlanishiga yordam berish, ularning sarguzashtlarga, ijodiy mashg‘ulotlarga, tajribalarga bo‘lgan intilishini qondirishdan iborat. Bolalar parki landshaftida tabiiy sharoit va hayvonot dunyosining xilma-xilligini, iloji boricha aks ettirmoq maqsadga muvofiqdir.

Bolalar parklari uchun shaharning eng qulay va yaxshi ko‘kalamzorlashtirilgan hududi ajratilishi lozim. Ularga yashil massivlar, bog‘lar va o‘yin maydonchalari beriladi. Katta shaharlarda bolalar parkin mustaqil park deb hisoblanadi. Markaziy bolalar parkining kattaligi 50 ga dan 300 ga gacha bulishi mumkin. Bu sharoitda xar xil yoshga kirgan bolalarga kizikarli dam olish sharoitlarini yaratish mumkin. Masalan, Moskva shaxrida «Strana chudes» nomli bolalar parki uchun juda kizikarli zonalar yaratish uchun ko‘p mutaxasislar takliflari kiritilgan.

**13-14-Mavzu. Loyihaga grafik rang berib ishlash.**

**Reja:**

1. **Gidroparklar, akvaparklar.**
2. **Yopik va ochik akvaparklar.**

Yangi shahar madaniyat va istirohat bog‘larida bolalar dam oladigan zonasi mustaqil bolalar parki deb hisoblanishi mumkin. Bolalar parki turar joy hududlariga iloji boricha yaqin va piyoda yo‘llari yonida bo‘lishi kerak. Odatda, bolalar parklari 3-5 ga maydonda loyihalanadi. Park hududini har xil yoshdagi bolalarga mo‘ljallab bir qancha maydonchalarga ajratiladi. Me’moriy inshootlar, maydonchalar va uskunalarning o‘lchamlarini hamma yosh guruhidagi bolalarga hisob qilmoq kerak: 2 yoshgacha; 2-5; 6-7; 8-10; 11-13 va katta yoshgacha. Inshootlar o‘lchamlari va ekspozitsiya mavzusi ushbu yoshga mos kelishi lozim. Eng kichik yoshdagi bolalar uchun qum qutilari uchun kichik maysazorlar, past skameykalar, soyabon qo‘ziqorinlar, shu atrofda bolalarning ota-onalari uchun kattalar dam olish joyi loyihalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tirmashib chiqish uchun qurilmalar, kachelilar, uchish tog‘chalari, hovuzlar va boshqalar qo‘yilishi kerak. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun koptok o‘yinlari maydonchasi, sport devorchalari, mashinalar, kemalar, raketalar maketlari, tirmashib chiqish uchun fazoviy konstruktsiyalar, shuningdek stol o‘yinlari uchun skameyka va stollari bo‘lgan tinch burchaklar joylashtiriladi. Barcha yoshdagi bolalar guruhlari uchun parkda xojatxona va qo‘l yuvish joylari bo‘lishi lozim.

**Gidroparklar, akvaparklar -** sport sog‘domlashtirish va suv atrofida dam olish vazifasini bajaradi. Ularning tashki ko‘rinishi ochiq suv havzaligi va angarlar, parusli va motorli qayiqlar uchun gavanlar, yepiq va ochiq basseynlar, o‘ziga xos suv attraktsionlari, gidrokarusellar, suv tramplinlari (tabaganlar), suzib yuradigan saxna maydonchalari, restoranlar, ko‘priklar va arqon yo‘llari kabi inshootlar bilan belgilanadi. O‘zbekistonning issiq iqlimi sharoitida bu parklar eng kerakli.




22
22
21
22
23
К1
23
22
30
29
21
27
26
28
23
24
25
33
31
34
27
22
8
7
32
4
32
33
26
9
3
20
9
24
6
2
18
19
14
15
1
20
5
11
10
35
17
13
12
16



**Yopik va ochik akvaparklar:**1-Toronto shaxridagi yopik akvaparkning 1 va 2-kavat rejasi, 2 - Tokio shaxri atrofida joylashgan Samerlent akvaparki, 16 ga.





## AKVAPARKLAR



**Attraktsionlar parklari** – bu maktab va o‘smir yoshidagilar foydalanadigan faol dam olish parklarining eng ommaviy turi hisoblanadi.

Bu yerda faqat ko‘ngilochar attraktsionlar emas, insonning qo‘rqmasligi, abjirligi, o‘zini boshqarish, reaktsiyasining tezligini rivojlantiradi.

Zamonaviy attraktsionlarni organizmnmng tashqi ta’sirlarga moslashuvi va jismoniy chidamliligini oshirishga xizmat qiladigan trenajerga tenglashtirish mumkin. Ularning konstruktsiyasida fan va texnikaning oxirgi natijalari qo‘llanilishi lozim.

**Sport parklari.** Bu yashil o‘simliklar orasida joylashgan sport, fizkulьtura, madaniy-oqartuv inshootlari komplekslaridir, ular o‘z tarkibiga qisqa dam olish joylarini ham oladi. Me’moriy-makoniy kompozitsiya musobaqalar va mashq-mashg‘ulotlar o‘tkazilishi sharoitlariga ko‘ra aniqlanadi. Maydonchalar, inshootlar, o‘tish joylari va hiyobonlar bu yerda boshqa park turlariga nisbtan hududning ancha kattaroq qismini egallaydi.

**15-16-17-18-Mavzu. SHartli belgilarni qo‘yish.**

Reja

1. Ko‘rgazma parklar.
2. Zoologik va botanika parklar.

**Ko‘rgazma parklar.** Ko‘rgazma parklari barcha turlarining umumiy kompozitsion asosi bo‘lib keluvchilar harakatini ekspozitsiyalarini to‘liq ochib berish uchun tashkil etishdan iboratdir. Ekspozitsiyalarni tomosha qilish tartibi, ularning ko‘rgazma mavzusi xususiyatlarini hisobga olgan



holda qabul qilish uchun eng qulay muhit yaratish har doim asosiy vazifa bo‘lib kelgan, ammo ekspozitsiya ob’ektlarining xarakteri butunlay turli xil me’moriy makon yechimlariga olib keladi. Bunda har qanday ko‘rgazma parkida asosiy ekspozitsiya qismidan tashqari yordamchi qismlar keluvchilar dam olishi, ma’muriy xo‘jalik, ba’zi hollarda ilmiy qismlarni ajratish mumkin.

**Zoologik va botanika parklar.** O‘zining funktsional- tarxiy tuzilishi bo‘yicha eng murakkabiga kiradi. Ularning hududida ekologiya qismi umumiy maydonning 45-70%, park qismi – 15-35% xizmat qismi – 10% gacha, bolalar qismi -10% gacha, xo‘jalik qismi 0,5-3% gacha, ilmiy markaz - 3% gacha, veterinaria qismi -5% gacha tashkil etish tavsiya etiladi.




Bunda hayvonlar ekspozitsiyasida ularning ritmi va biologik hayot kechirish sharoitlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak, bu hayvonlarning antogonistik turlarini bir-biridan ajratish orqali amalga oshiriladi.

Keluvchilarning xavfsizligi, tomosha qulayligi hamda xayvonlar yashash joylari tabiiy landshaft fonini qayta tiklash to‘liq ta’minlangan bo‘lishi lozim. Bunday joylar volьer deb aytiladi. Bu yerda hamma narsa tanlangan hayvonlarni namoyish qilish tamoyiliga va ularni tomosha qilishning eng to‘g‘ri variantiga bog‘liq.

Hozirgi paytda qismlarni “zoogeografik” yoki “ekologik” tartibda joylashtirish eng ko‘p qo‘llanilyapti. Bunda “zoogeografik” tamoyilda hayvonlar dunyo qit’alariga (Evropa, Afrika va h.k.) mos keladigan qismlarda namoyish etiladi. “Ekologik” tamoyil bo‘yicha namoyish qilinadi, “tayga qismi”, “cho‘l qismi”, “tog‘ qismi” va boshqa qismlar ajratiladi.



**Botanika bog‘lari** eng qadimiy bog‘lardan biri bo‘lib xisoblanadi. O‘rta asr davrlarida mashhur botanika olimi Karl Linney birinchi bo‘lib o‘simliklar sistemasini yaratgan. Uning sistemasi so‘g‘un davrlarda butun jahonga tarqalgan. Botanika bog‘larining vazifasi nafaqat o‘simliklarni o‘stirish ,balki ularni yangi tabiiy sharoitga mos keltirish vazifasi juda katta. Ular asosiy: ekologik, ilmiy, xizmat, xo‘jalik qism bo‘yicha ajratiladi. Ekologik va ilmiy qisimlarda o‘simliklar botanika va dekorativ talablarga mos qilib joylashtiriladi. Ko‘pincha botanika bog‘lari o‘z ilmiy vazifalarini bajarish bir vaktda peyzajli, sayr qilish va o‘qitish vazifalarini ham bajaradilar.




**Etnografik parklar.** Bu parklar ko‘rgazma parklar turlaridan biri,lekin alohida parklardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunday parklarni tashkil etishdan maqsad – bir joyda xalq me’morligi ob’ektlarini, maishiy xizmat jihozlarini saqlash, xalq hayotining tarixiy sahifalarini chuqurroq anglatish uchun oldingi asrlar eksponatlarini asl holida qoldirish.

Bu parklarga butun mamlakat chetlaridan yoki biror viloyatlardan eng mashhur xalq me'morchiligi, amaliy san'at asoslarini va an'anaviy maishiy hayot namunalarini olib kelib ochiq havoda namoyish etiladi. Etnografik parklar asosan landshaft (peyzaj) kompozitsiya qonunlari bilan tashkil etiladi. Ularda mohiyati jihatidan bular ochiq muzeylardir, ularning eksponatlari landshaft fonida qabul qilinadi va u bilan uzviy aloqada bo'ladilar.



Tematik parklar yaratish maqsadi odamlarga qizikarli, o'kimishli va bevosita qulay dam olish sharoitini tashkil kilish. Eng avval tematik parklarning yaratilishi Ispaniyaning mashxur arxitektori Antonio Gaudi va amerikalik Uolt Disney nomlari bilan bog'lanadi (15, 16-rasmlar jadvali).

Hozirgi tematik parklar – milliardlab dollar aylanib turadigan turistlik biznesining muhim segmenti hisoblanadi. Bu yerda attraktsionlar va otel, restoran, magazin, turistlik agentliklari kabi turistlarga xizmat ko'rsatish infrastrukturasiga ega bo'lgan yirik majmualar joylashgan bo'ladi.

Ko‘ngilochar parklar sanoatida AQSHda 50-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan parklar yetakchilik qilgan. Hozirgi kunda faqat Florida shtatining Orlando shahrining o‘zida ularning soni 20 ta atrofida. Yevropada park qurilishi bo‘yicha yetakchi o‘rinda Avstriya, Germaniya, Frantsiya turadi.











Bu yerda o‘nlab ko‘ngilochar markazlar tashkil etilgan (Europa Park, Legoland Heide Park va b.). Bir qancha shunday ob’ektlar Ispaniyada (Universal Mediterranea, Terra Mitica, Warner Bros, Movie World Park), Frantsiyada (Disneyland Resort Paris), Buyuk Britaniyada (Futuroscope, Asterix) mavjud.

Daniya, Gollandiya, SHveytsariya, SHvetsiya, Finlyandiyada bir ikkita, yaqinda Rossiyada ham kungilochar park qurildi – bu Gelenjikdagi “Kapitan Vrungelь” tematik bog‘idir. Katta attraktsion parklar qurilishi Osiyo davlatlari va Avstraliyada ham amalga oshirildi. Bu yerda tematik park qurilishida birinchi o‘rinda qit’aning eng texnologik davlati Yaponiya turadi. U yerda o‘nlab ko‘ngilochar
majmualar mavjud. Bu borada Xitoy, Singapur, Koreya va Malayziya ham katta yutuqlarga erishdi.

**19-Mavzu. Ishni yakunlash, himoya qilish va baholash.**

Reja

1. Stil.
2. Doimiy stil.

**Stil** - bu nafaqat bog‘-park san’atini ishlab chiqishda estetik kategoriyadir, balki u hayot faoliyatidagi ko‘rsatkichdir. Zamonaviy bog‘-park san’atida turli tendentsiyalarning barcha yuksakligining ochilishi o‘tgan vaqtdan bizgacha yetib kelgan oqim va ta’mdir.

Tarixda asosiy ikkita stil ajraladi: arxitektura-ochiqlik va bog‘lar va parklarning tashkil etish tarxiga - doimiy yoki geometrik arxitektura (frantsuzcha) va landshaft yoki - tabiiy (inglizcha), keyinchalik, park va bog‘lar landshaft-arxitektura tashkili, bu stillar, tendentsiyalar bilan birga keng tarqaladi.

**Doimiy stil** – o‘zining to‘g‘ri chiziqli hiyobonlari, yashil qurilmalarning simmetrik joylashuvi, geometrik shakllarining to‘g‘riligi bilan tavsiflanadi. Daraxtlar va butalarni qirqish kengroq ishlatiladi (topiar san’ati). Oddiy qilib aytganda, bunday ob’ektda kengroq parterlar kutiladi, keng yo‘llarning davomchisi (hiyobon), ularga nisbatan skver va bog‘ning hamma qismlarida simmetrik va assimetrik joylashish mumkin.






DISNEYLAND PARK
WALT DISNEY STUDIOS
Disney Hotels
DISNEYLAND RESORT PARIS


PHOTOSMAGIQUES.COM


MARKET HOUSE


©1999 Kirk Bender kbender@znet.com



**Landshaft stili** – tabiiy kartinalar yaxshilanishining qaytarilishi bilan xarakterlanadi. O‘simliklar tabiiy guruh holatida erkin joylanadi.
Quyuq kartinalar (guruhlar), daraxtlar va butalar, o‘tloqlar, ochiq suv usti bilan almashinadi. Yo‘laklar va hiyobonlar o‘rmon yo‘llaridan erkin qo‘yiladi. Bu arxitektorga tabiiy kartinalarni katta bo‘lmagan hududlrda qurishga imkon beradi.



**Aralash stil** – yashil ko‘chatlarning tarzi ikki stil tamoyilining uyg‘unligida vujudga keladi: doimiy-ommaviy keluvchilar zonasida, landshaft – tinch dam olish zonasida. Aralash stilning kompozitsiya birligidagi boshqa usuli daraxtlarning assimetrik ekilishi, qo‘yilishining aralashuvida mumkin va h.k. doimiy tarxda.




www.Gardener.ru



**Stil tanlash** – doimiy-rasmiy yoki norasmiy manzarada erkin bo‘lishi kerak emas. Bog‘-park kompozitsiyasi, landshaftda stilni aqlan ishlatish shart-sharoitni funktsional maqsadga bo‘ladi va tabiiy sharoitlar yoqimlidir. Joyni yoki unday, yoki bunday stil deb atab bo‘lmaydi: uning rivojlanishi tabiiy mavjud sharoitlardan, iqtisodiyot, dam olish ko‘rinishidagi ehtiyojlardan kelib chiqishi kerak.

O‘zbekistonning tabiiy-iqlimiy sharoitining xilma-xilligini e’tiborga olib, madaniy va milliy urf-odatlar, stil deb nomlangan amaliyot, boshqa tumanlarda noto‘g‘ri qabul qilingan. Mamlakatning xar bir zonalarida alohida tabiiy-iqlimiy bog‘-park landshaftini yaratishda shunga erishish kerakki – turli ko‘rinishni yorqinroq ko‘rsatish, kayfiyat, mahalliy tabiiy landshaft mazmuni. Park yuqori darajadagi ko‘rinishi – ochiqlik san’atida, asarlarni faqat vaqt kelishi bilan qabul qilish.

Peyzajni estetik qabul qilishni tashrif etuvchilarda ta’sirchan uyg‘otish – parklarni tashkil etishdagi eng muhim va qiyin vazifasi dir. Peyzaj kompozitsiyasi badiiyligi bilan insonga emotsional ta’sir etuvchi katta kuch, badiiy “til” va bezash. Estetik misollarni yechishda bog‘-park landshaft bilimlarini bilish va ko‘p qirrali shartlarni hisobga olishni, park muhitini shakllantirishni taqdim etish uchun kiritadi. Bu hududlarni funktsional cheklash:

funktsiyalarni va ochiqlik shakli to‘g‘ri kelishi; ochiqlik modulyatsiyasi; peyzaj xarakterini o‘zgartirishda va ochiqlikning ketma-ketlik bilan boshqa ochiqlikka o‘tishini ta’minlaydi; ta’sirlanishning turli ko‘rinishlari (fakturaning almashuvi, yorug‘lik, sifat, tomoshabin taassuroti); ochiqlik orasidagi harakatning bo‘lishi va hajm atrofida yoki o‘tib ketish; kompozitsion va emotsional dominantning shakllanishi.

Estetik kompozitsiya tamoyillari yo‘nalishida bog‘-park peyzaji quyidagilarni kerak deb biladi:

1. Arxitekturaviy shakllar uchta kategoriyaga tayanadi: ochiqliq (hudud), tekislik (tuproq ustki qismi va suvlar) va hajmlar (yashil koʻchatlar, relьef, qurilmalar). Ular oʻzaro quyidagi tushunchalarga bogʻlanadi – hajmiy-fazoviy kompozitsiya va ochiqlikni tashkil etishni shakllantirishda umumiy qonunchilikni aytib oʻtadi;

2. Ochiq-peyzaj-rasmlarni qurish, tasviriy san’atning ishtirokiga asoslanib, aniqroq rangtasvir, tushuntirish ashyolari: kolorit, yorugʻlik va soya, chiziqli va havoli perspektiva (90-rasm);

